

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI

**Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
fanlarini o'qitishning innovatsion
muhitini loyihalashtirish**

**MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA**



TOSHKENT-2022



Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: **M.A. Sobirova** – Nizomiy nomidagi TDPU, “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Taqrizchilar: **S.X. Xudaynazarov** – O'zMU “Fuqarolik jamiyat va huquq ta'limi” kafedrasida dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
N.F.Saydalixodjayeva - Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari” kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Xorijiy ekspert: **p.f.dok., professor A.X.Pulotov** – akademik Bobojon Gafurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti

O'quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	12
III. NAZARIY MATERIALLAR MAZMUNI	20
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI	82
V. KEYSLAR BANKI	100
VI. GLOSSARIY	103
VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	106



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonidagi ustuvor yo'nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy va pedagogik kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi. Dastur mazmuni oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari vaqonunchilik normalari, ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta'lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, global Internet tarmog'i, multimedia tizimlari va masofadan o'qitish usullarini o'zlashtirish bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

modulining **maqsadi** pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Modulning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasi oshirish kursi tinglovchilarining innovatsion muhit va darsni loyihalashtirish haqidagi tasavvurlarini boyitish;

pedagog kadrlarning milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish bo'yicha kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda oliy ta'limning sifatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pedagoglarning sohaga oid kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;

maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish;

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta'minlash.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

– milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish;

– Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning metodlari va vositalari klassifikatsiyasi;

– modulning ta'limiy va tarbiyaviy maqsad-vazifalari;

– ta'lim metodlari va usullari;

– milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishda qo'llaniladigan darslarda vositalar tasnifi;

– ta'lim mazmunini modernizatsiyalash;

– ta'limdagi innovatsiyalarni haqida ***bilishi kerak***.

– fanlardagi innovatsiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish;

– milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish;

– darslarda tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan samarali foydalanish;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarning bilimlarini ob'ektiv baholash mexanizmlari, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish, ularga rahbarlik qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim***.

– o'qituvchining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish;

– moderator o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish asosida o'zining pedagogik faoliyatini takomillashtirish;

– fanlarni o'qitish jarayonida tinglovchilarning bilimlarini xolisona baholash mexanizmlarini, reyting nazoratda qo'llashga qaratilgan didaktik vositalar: standart va nostandart testlar hamda o'quv topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;

– o'quv axborotni qayta ishlash, muammoli vaziyat, Keys-stadi topshiriqlarini tuzish;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarda mustaqil ravishda bilimlarni yanada orttirib borishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, mustaqil ish vazifalarini tabaqalashtirish, mustaqil ish va ijodiy izlanishlarini tashkil etish;

– didaktik ta'minotni takomillashtirish kabi *malakalariga ega bo'lishi lozim*.

– milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy yo'nalishlariga oid nazariy qarashlar, yetakchi konsepsiyalarini pedagogik faoliyatda qo'llay olish;

– mashg'ulotlarda innovasion va axborot texnologiyalar, tinglovchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llash;

– ta'lim jarayonida tinglovchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladigan interfaol ta'lim shakllari, metodlari va vositalaridan pedagogik amaliyotda samarali foydalanish;

– milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, bo'lajak tarbiyachilarda kreativ malakalarni shakllantirish *kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim*.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish“ moduli mazmuni o'quv rejadagi “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi”, “Oliy ta'limda milliy g'oya va ma'naviyat asoslari fanlarini o'qitishning nazariy asoslari” o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoqlarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.



Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) modulning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohotlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarning zamonaviy konsepsiyalari va fanning dolzarb nazariy muammolari, taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalarini o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			nazariy	amaliy
1.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish yaxlit tizim sifatida.	2	2	-
2.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari. Metodik ishlarni tashkil etish va didaktik ta'minot.	4	2	2
3.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi fanlarni o'qitish shakllari, metod va vositalari.	4	2	2
4.	Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi. Masofaviy ta'limni tashkil etish.	2	-	2



5.	Ta'lim jarayonini loyihalashtirish va uni tashkil etish texnologiyasi.	2	-	2
6.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etish.	4	2	2
7.	Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi.	2	-	2
8.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlaridan kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashning tashkiliy, ilmiy-metodik ta'minoti va ularning onlayn himoyalarini tashkil etish texnologiyasi.	2	-	2
Jami		22	8	14

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish yaxlit tizim sifatida

Ta'lim jarayonini loyihalashtirish. Loyihaviy ta'limni rivojlanish tarixi. Loyihaviy ta'limning muhim belgilari. Loyihaviy ta'lim turlari. Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish.

2-mavzu. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari. Metodik ishlarni tashkil etish va didaktik ta'minot

Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari.

Metodik ishlar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xususiyatlari.

Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minoti.

3-mavzu. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi fanlarni o'qitish shakllari, metod va vositalari

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli shakllari. Dars jarayonlarida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish. Interfaol ta'lim metodlari tushunchasi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish



jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari tasnifi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda test metodini qo'llash.

Ta'lim vositalari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan vositalar tasnifi. O'quv adabiyotlari.

4-mavzu. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etish

Ta'limning kredit-modul tizimi, mazmun va mohiyati. Kredit-modul tizimining mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kirishi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari. O'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. Fanlarni tanlash imkoniyati. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari. Metodik ishlarni tashkil etish va didaktik ta'minot

Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari.

Metodik ishlar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xususiyatlari.

Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minoti.

2-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi fanlarni o'qitish shakllari, metod va vositalari

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli shakllari. Dars jarayonlarida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish. Interfaol ta'lim metodlari tushunchasi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari tasnifi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda test metodini qo'llash.

Ta'lim vositalari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan vositalar tasnifi. O'quv adabiyotlari.

3-amaliy mashg'ulot: Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi. Masofaviy ta'limni tashkil etish

Oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va usullaridan foydalanish. Ma'ruza va seminar, amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.

Masofaviy ta'limning asosiy didaktik tushunchalari. Masofaviy o'qitishning maqsadi va mazmuni. Masofaviy o'qitishning umumiy va xususiy tamoyillari Masofaviy o'qitishning metodlari va usullari. Masofaviy o'qitishda foydalaniladigan vositalar. Masofaviy o'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlar. Masofaviy o'qitish kurslarida nazorat ishlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari.

4-amaliy mashg'ulot: Ta'lim jarayonini loyihalashtirish va uni tashkil etish texnologiyasi

Loyihaviy ta'limni rivojlanish tarixi. Loyihaviy ta'limning muhim belgilari. Loyihaviy ta'lim turlari. O'quv fanlariga bog'liqlikda ishlab chiqiladigan loyiha turlari.

Loyiha texnologiyasi. "Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va huquq ta'limi" yo'nalishida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini loyihalashtirish.

"Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va huquq ta'limi" yo'nalishida o'quv fanlarning mazmunini loyihalashtirish

5-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etish

Ta'limning kredit-modul tizimi, mazmun va mohiyati. Kredit-modul tizimining mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kirishi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari. O'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. Fanlarni tanlash imkoniyati. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi.

6-amaliy mashg'ulot: Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi

Mustaqil ta'lim tushunchasining mazmun va mohiyati. Mustaqil ta'lim - olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili. Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatining asosiy bosqichlari. Mustaqil ish turlari.

Talabalarning mustaqil ta'limini baholash mezonlari. Masofaviy ta'lim



jarayonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari.

7-amaliy mashg'ulot: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlaridan kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashning tashkiliy, ilmiy-metodik ta'minoti va ularning onlayn himoyalari tashkil etish texnologiyasi

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlaridan kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bankini shakllantirish. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashga rahbarlik qilish.

Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari uchun adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari uchun topshiriqlar tayyorlash.

Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarining bajarilishi. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarining an'anaviy va onlayn himoyalari tashkil etish texnologiyasi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Ma'lumki, pedagogik texnologiyalarning asosiy vazifasi – o'qitish jarayonining maqsadlarini amalga oshirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishidir. Bu esa nafaqat ta'lim jarayonining mazmunan yangilanishiga, balkim, pedagogik jarayonning asosiy boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchi shaxsi, uning boshqaruv mazmuni va harakat yo'nalishiga ham sezilarli o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Shuningdek, innovatsion o'qitishda bilimlar vazifasi ham o'zgarib, ya'ni, avvalgi doimiy yod olishdan mantiqiy fikrlash, izlanishga o'tiladi. Bunday faoliyat ta'lim oluvchi faoliyatidagi ijodkorlikni rivojlantiradi. U o'z tengdoshlari va o'qituvchisi bilan o'zaro faol “sub’ekt-sub’ekt” munosabatlariga kirishadi.

Shu sababdan, mazkur jarayonda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, axborot tashuvchi sifatidagina emas, balki bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi boshqaruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada o'qituvchining talabaga ta'sir etish va boshqarish xarakteri ham o'z-o'zidan o'zgaradi. Bunday o'qitishni amalga oshirish esa ta'limni tashkil etishning shakl va metodlariga nisbatan xam yangicha o'zgartirishlar kiritish bilan belgilanadi. Shu o'rinda dars berish usullarining o'ziga ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Dars berish usullari – ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir, o'qish usullari esa, ta'lim oluvchining faoliyatini tashkil qilish vositasidir.

Usullar tizimi, ya'ni, talaba va o'qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilish usullari quyidagi belgilari bo'yicha bir necha guruhlarga bo'linadi:

Birinchi guruh — talabalarning o'zlashtirish, tushunib yetish, bilimni mustahkamlash bo'yicha perseptiv (Perseptiv o'zlashtirish) ish faoliyatini ta'minlaydigan, tayyor holatda talabalarga bayon qilingan o'qitish va bilim olish usullari:

- ma'ruza, hikoya, tushuntirish;
- namoyish, illyustratsiya, videousul.

Ikkinchi guruh — talabalarning bilimni o'zlashtirish, singdirish, mustahkamlash bo'yicha reproduktiv faoliyatini ta'minlovchi, mahorat va malakani algoritm (namuna) bo'yicha bevosita talaba boshchiligida ishga solishni tashkil etishga asoslangan o'qitish va bilim olish usullari:

- kitob bilani ishlash;
- laboratoriya usuli;
- mashqlar.

Uchinchi guruh — ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, ta'lim oluvchilarni mahsuldor faoliyatini ta'minlovchi dars berish va o'qitish usullari:

- o'quv suxbati;
- davra suxbati;
- baxs;
- miyaga xujum (breynstorming);
- ishbilarmon yoki rolli o'yin;
- "pinbord";
- "aqliy hujum".

To'rtinchi guruh— talabalar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytiradigan va shunga undaydigan usullar:

- muammoli topshiriqlar usuli;
- individual (amaliy) usul;
- loyihalar usuli.

Ta'lim berish tamoyili - bu ta'lim berish nazariyasining asos qilib olinadigan qoidalari bo'lib, bunda o'qituvchilar o'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etish hamda dars berishda ularga amal qilishlari lozim. Ta'lim berish nazariyasidagi qoidalar - ta'lim berishning didaktik tamoyillari bo'lib, bularga tarbiyaviy o'qitish, o'quv materialining ilmiy jihatdan to'g'riligi, o'qitishning ko'rgazmali bo'lishi, o'qitishni amaliyot - ishlab chiqarish bilan (aloqasi) bog'langanligi, ilmlarning ongli ravishda o'zlashtirilishi, o'quv materialini tushuntirish va o'rgatishning izchilligi va muntazamligi, o'qitishning sodda va tushunarli bo'lishligi, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish, o'quv va tarbiyaviy jarayonlarni bozor munosabatlari qoidalari asosida tashkil etish (qurish), bilimlar o'zlashtirishdagi puxtalik, har bir talabaga yakka tartibda yondoshish kiradi. Tarbiyaviy o'qitish-bakalavrlar tayyorlashdagi yetakchi tamoyil. Bu borada fan o'qituvchilarining vazifasi faqat o'qitilayotgan fan sohasi tarixini bayon qilishdan iborat bo'lmay, balki fanning har bir jabhada erishgan yutuqlarini (ilg'or va qimmatli tomonlarini) ko'rsatishdan iboratdir. Tarbiya masalalari har qanday shakldagi o'quv mashg'ulotlarining (ma'ruza, laboratoriya-amaliy mashg'ulot, maslahat, ishlab chiqarish ta'limi va amaliyoti, reyting-imtihon) asosini tashkil qilishi lozim. Har bir dars oldidan sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarini, milliy istiqlol mafkurasining ilmiy asoslarini, jamiyatimizning ma'naviy yangilanish tamoyillarini qiziqarli suhbatlarda qisqacha tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiyki, dars jarayonida va darsdan tashqari holatlarda o'qituvchining ibratomuz xatti-harakati katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, interfaol usullarni qo'lash jarayonida o'qituvchidan juda katta mahorat, bilim va tajriba talab etiladi.

Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo'lib, talaba bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol usullar talabalardan axborotlarni o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni

shakllantiribgina qolmay, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bugungi kunda o'qitish tizimidagi eng samarali interfaol o'qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo'ladi: "Sinkveyn", "Klaster", "Charxpalak", "Aqliy hujum", "Skrabey", "Ikki qismli kundalik", "Venn Diagrammasi", "Tushunchalar tahlili", "Debatlar", "6-3-5", "Akvarium", "Davra suhbat", "Insert", "Assesment", "Fidbeyk", "Pinbord", "Juftliklarda ishlash", "Beshinchisi ortiqcha", "Chorraha" texnikasi va h.k.

Shu o'rinda milliy g'oya fanini o'qitishda yuksak pedagogik mahorat asosida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llariga qisqacha to'xtalib o'tishga harakat qilamiz.

Masalan "Aqliy hujum" metodi. Bu metod orqali talabalarga savollarni berish bilan o'qituvchi avvalo o'tgan darslarni mustahkamlaydi, yangi mavzuni oydinlashtiradi, mavzulararo bog'lanishga erishadi, talabalarda erkin fikr, mustaqil dunyoqarashni shakllantirib, fikrlarni zudlik bilan jamlash, tez, aniq va lo'nda javob berish, vaziyatni to'g'ri baholash kabi ko'nikmalarni uyg'otadi.

Dars jarayonida "Aqliy hujum"dan maqsadli foydalanish ijodiy, andozasiz tafakkurlashni rivojlantirish manbai hisoblanadi. "Aqliy hujum"ni uyushtirish sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida, ishlab chiqarish mammlari yechimini topishda ham foydalanish mumkin. Dastlab guruh yig'ilib, ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammo yechimi to'g'risida ishtirokchilar o'z fikrlarini bildirishadi. Bu bosqichda hech kimning o'zgalar g'oyasiga "hujum" qilishi yoki baholashiga haqqi yo'q. Demak, "Aqliy hujum"da qisqa vaqtda o'nlab g'oyalarning yuzaga kelishi imkoniyatlari mavjud bo'ladi. Aslida, g'oyalar soni maqsad emas, ular muammo yechimi uchungina asos bo'ladi. Bu metod shartlaridn biri qatnashuvchilarning har biri tashqi ta'sirsiz faol ishtirokchi bo'lishi kerak.

"Aqliy hujum" qoidalarini quyidagicha belgilash mumkin:

- olg'a surilgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ish sifatiga emas, saniga e'tibor qaratiladi, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;
- istalgan g'oyani mumkin qadar mukammallashtirish va rivojlantirish mumkin;
- muammo yechimidan g'oyalardan ham qo'llab quvvatlanadi;
- barcha g'oyalarning asosiy mavzulari(farazlari) yozib olinadi;
- "hujum" vaqti aniqlanadi va unga rioya qilinishi shart;
- savollarga qisqacha(asoslanmagan) javoblar berish ko'zda tutiladi.

"Aqliy hujum" metodi qiyin vaziyatdan qutulish choralarini topishga, muammoni chegarasini kengaytirishga, fikrlar xilma-xilligiga erishishga va tafakkur doirasini kengaytirishga imkon beradi. Eng asosiysi, muammoni yechish jarayonida

ijodiy hamkorlik kuchayib, guruh(auditoriya yoki sinf) yanada jipslashadi.

“Aqliy hujum” metodi qo'llanish maqsadiga ko'ra, universal hisoblanib, ilmiy izlanishlar jarayonida yangi muammoni yechishga imkon yaratadi, o'qitish jarayonida o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirishga yordam beradi, fikrni mustahkamlashda asqotadi, ya'ni talabada o'z-o'zini boshqarish asosida faol fikrlashni shakllantiradi.

“Aqliy hujum” metodini quyidagicha tartibda qo'llash mumkin. Mazkur metodning ishtirokchilari muammo mulohaza-takliflarni bildirishlari mumkin, aytilgan fikrlar yozib olinadi. Metod samarasi fikrlar xilma-xilligi bilan tavsiflanadi va ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. “Aqliy hujum” tugagach, eng yaxshi takliflar birlashtirilib, muammoning yechimi uchun zarur bo'lganlari tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” bu metodi amerikacha “Aqliy hujum” metodi bo'lib, bugungi kunda ta'lim tizimida ancha ommalashdi. Talabalarning mustaqil dunyoqarashi, erkin tafakkurini rivojlantirish maqsadida dars jarayonlarida ushbu metodni foydalanish kutilgan samarani berishi shubhasiz.

“Aqliy hujum” metodi bo'yicha talabalar mustaqil o'qib, izlanishlari va muayyan ma'noda bilim va tasavvurlarga ega bo'lishlari uchun o'tgan darslarda ular mazkur mavzu yuzasidan kerakli adabiyotlar yoki o'qituvchi tomonidan tayyorlangan tayanch ma'ruza matni bilan ta'minlanishlari zarur.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi darslarda qo'llaniladigan metodlardan yana biri “Ajurli arra” metodi bo'lib, bu metod tuzilishi jihatdan o'zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Topshiriqlarni bo'lish: “Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzular)ga qirg'iladi”.

2. Birlamchi guruhlari: “Har bir guruh a'zolari qirg'ilgan mavzuni oladilar va ekspertga aylanadilar”.

3. Ekspert guruhlari: “Qo'lida bir mavzuga oid o'quv topshiriqlari mavjud bo'lgan talabalar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o'rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhlarga birlashadilar”.

4. Birlamchi guruhlari: “Talabalar o'zlarining birlamchi guruhlari qaytadilar va ekspert guruhlarda o'rganganlarini o'qitishadi”.

Izoh: “Ajurli arra” mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba'zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O'qitish jarayonida bu tarzda yondashilganda talabalarning hamkorlikda ishlashga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishga imkon tug'iladi.

2. U yoki bu faoliyatni darsda amalga oshirish uchun talabalarga boshlang'ich axborotlarni uzatish zarurati tug'ilsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali instrumentariy hisoblanadi.

3. O'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha talabalarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo'shimcha tarzda gazeta, jurnal, maqolalardan materiallar bo'lishi kerak.

4. Har bir talaba 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab "o'z uyi" (birlamchi) guruhiga birlashib, o'quv elementlarini mustaqil o'rganishadi. Ekspert guruhini tezda tashkil etish uchun talabalar olgan axborotli paketlarda har bir mavzuga oid materiallar bir hil rangdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror bir burchagi bo'yalgani ma'qul.

5. Har bir guruhda 3 tadan 5 tagacha kishi talaba soniga qarab bo'lishi mumkin. Har bir talaba "o'z yo'l"dagilarni va qayta uchrashish joyini aniqlab olish kerak.

6. O'qituvchi talabalarga "rangli" topshiriqlar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, "qizil" larni honasi oxirida, "ko'k"larni esa auditoriya yo'lakhasida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruhda 3tadan kam talaba bo'lmasligi kerak.

7. Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli hil materiallar to'plamini olishlari va ularni o'qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo'yicha ekspertga aylanishi lozim. O'quv materiallari bo'yicha "ekspert" bo'lishi uchun talabalarga vaqt yetarli bo'lishi kerak. Bu uchun agar materiallar murakkab va katta bo'lsa, ehtimol bir dars to'liq talab qilinadi.

8. Talabalarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

- paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing va muhokama qiling;
- bir-biringizdan so'rang va o'quv materiallarini har biringiz tushinib olganingizga ishonch hosil qiling;
- o'z uyingiz guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib materiallarning muhim o'quv elementlariga e'tiborni qarating.

9. Talabalar o'z uylariga qaytishlarini iltimos qiling. Har biri o'z "uyi" – guruhiga axborot beradi. Shaksiz, "uy" guruhida ekspert guruhlaridan bittadan talaba bo'lishi shart. Talaba o'rganib kelgan materiallarni o'z guruhi talabalariga o'rgatish javobgarligini bo'yniga olish lozim. Bu jarayon o'quv materiallarining o'zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

10. Talabalar bir-birlaridan axborotlarni o'rganishib bo'lishgach, o'qituvchi oldindan rejalashtirgan faoliyat turini o'tkazishi mumkin.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi darslarda qo'llaniladigan metodlardan yana biri munozara metodidir. Bu metod yordamida talabalarga muayyan muammo bo'yicha to'liq axborotlar yetkaziladi, munozara uchun tanlangan mavzuni talabalar ayovsiz "shturm" qiladilar va pirovard natijada muammoga tegishli ma'lumotlarni atroflicha o'rganalilar.

Munozarani o'tkazish metodikasi:

1. Munozara olib boruvchi-boshlovchi (o'qituvchi, jurnalist, boshliq va hokazo) mavzuni oldindan tanlaydi va ishtirokchilarni taklif etadi.

2. Boshlovchi ishtirokchilarga "aqliy hujum" topshirig'ini beradi va uning qoidalarini tushuntiradi:

- "hujum"dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni mumkin qadar ko'proq taklif etish;

- o'z aql-idrokingizni markazlashtirishga harakat qiling va diqqatni muammo yechimiga qaratgan holda fikrlar bildiring. Bildirilgan g'oyalar umumiy fikrga zid bo'lsada, hech biri rad etilmaydi;


- boshqa ishtirokchilar g'oyalari ham rivojlantiriladi va hk.

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitishda

"Venna diagrammasi" metodidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega:

Ma'lumki, **Venna diagrammasi** metodi ikki va undan ortiq jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi. Ushbu metod o'quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Quyida "Venna diagrammasi" metodini qo'llashga doir namunani keltirib o'tamiz:



Shuningdek, “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishida talaba yoshlarga mamlakatimizda yuritilayotgan ijtimoiy siyosatning mazmun va mohiyatini atroflicha tushuntirishda mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi usul va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

“TARMOQLAR” metodi – talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu metod ijtimoiy siyosatning mezonlarini yoritishda ahamiyatlidir. Bu usulning ma'nosi – fikrlarning tarmoqlanishi. Yana shuningdek, “Tarmoqlar” metodi – pedagogik strategiya bo'lib, u talaba yoshlarni ushbu mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam beradi. Talaba yoshlarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashlariga o'rgatadi. Bu usul biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval talaba yoshlarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, umumlashtirish hamda talaba yoshlarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“3x4” metodi – talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“BLITS-O'YIN” metodi – harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga

qaratilgan bo'lib, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda ijtimoiy siyosatning o'rnini va ahamiyatini yoritishda bu metoddan unumli foydalanish mumkin.

“INTERVYU” texnikasi - talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan. O'z o'rnida talaba yoshlar mavzuning mohiyatini to'laqonli anglab yetishlarida mazkur metod muhim ahamiyat kasb etadi.

“IERARXIYA” texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ushbu texnikani qo'llash aynan ijtimoiy siyosatning mohiyatini oddiydan murakkabga tomon tushuntirib borishga yordam beradi.

“TALABA” treningi - talabalar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va talaba o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan, uning negizida aynan ijtimoiylashuv mezonini yotadi.

“O'QITUVCHI SHAXSI” treningi – o'qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar” mavzusidagi



mustaqil fikrlashga, ijodiy insho yozish orqali fikrlarni bayon qilishga qaratilgan.

“MULOQOT” texnikasi o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan.

“BOSHQARUV” texnikasi o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan.

Yuqorida keltirilib o'tilgan usul va metodlar o'quv jarayonida kerak bo'luvchi malaka, xotira, fikrlash, diqqat va tasavvur kabilarni shakllantiruvchi omillar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarimizni ijtimoiy faol, bilimi va tayyorgarligi davr talabi darajasida bo'lgan, ongi va tafakkuri yuksak, barkamol insonlar qilib tarbiyalash – har bir pedagogning oliyjanob burchidir.

III. NAZARIY MATERIALLAR MAZMUNI

1-mavzu: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI FANLARINI O'QITISHNING INNOVATSION MUHITINI LOYIHALASHTIRISH YaXLIT TIZIM SIFATIDA

Reja:

1. Ta'lim jarayonini loyihalashtirish. Loyihaviy ta'limning rivojlanish tarixi. Loyihaviy ta'limning muhim belgilari.
2. Loyihaviy ta'lim turlari. Ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari.
3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti.
4. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish.

Tayanch tushunchalar: Ta'lim jarayoni, loyiha, innovatsion muhit, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, loyihaviy ta'lim, texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologiyalashtirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, innovatsiya, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti.

1. Ta'lim jarayonini loyihalashtirish. Loyihaviy ta'limni rivojlanish tarixi.

Loyihaviy ta'limning muhim belgilari.

Oliy ta'lim respublikamiz ta'lim tizimining muayyan sohalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlovchi eng yuqori ta'lim bosqichi bo'lib, talabalarni sohaviy, kasbiy faoliyatiga yo'naltirish, har bir fanni mutaxassislik yo'nalishi bilan bog'lab borish, talabalarning mustaqil o'qib-o'rganish faoliyatini rivojlantirishga keng e'tibor qaratish ko'zda tutiladi. Shundan kelib chiqib, oliy ta'limdagi didaktik tamoyillar tizimida ilmiylik, onglilik, kasbiy yo'naltirilganlik, faollik, mustaqillik va individuallik kabi ta'limning tarbiyalovchi va takomillashtiruvchi tamoyillarini o'zaro uzviy bog'liqlikda qo'shib olib borish talab qilinadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida faoliyati olib boruvchi har bir pedagogning o'z oldiga qo'ygan pedagogik vazifasiga erishishida o'qituvchi va talaba faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalashi muhim o'rin tutmoqda. Aslida ham o'qituvchi kasbiy faoliyatini tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalashtirish alohida ahamiyatga ega. Har bir o'quv kursi kabi milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi fanlarni o'rganish ham alohida mavzu va bo'limlarni loyihalashtirish asosida amalga oshiriladi.



Ta'lim jarayonini loyihalashtirish – pedagogik faoliyat ko'inishi bo'lib, u ta'lim jarayonining texnologik tuzilma hamda o'qitish natijasini kafolatlovchi metod va vositalar yig'indisiga egaligi bilan tavsiflanadi.

Loyihaviy ta'lim pedagogika amaliyotida 300 yildan ortiq qo'llanilib kelmoqda. Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqotiga ko'ra, "loyiha" tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

XVIII asr oxirida muxandislik kasblari paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiya, so'ngra Germaniya, Avstriya, Shveysariyada, XIX asr o'rtalarida esa AQShdagi texnika va sanoat oliy maktablarida qo'llanila boshlangan.

Amerikalik pedagoglar V. Kilpatrik, Ye. Kollings va Ye. Parxerstning ishlarida rivojlantirildi, ular tahsil oluvchilarning nafaqat faol o'rganish faoliyati, balki birgalikdagi mehnat, hamkorlik asosidagi faoliyatini tashkil eta boshladilar.

Loyihalar usuli «o'qitish usuli» didaktik toifa sifatida XIX asr boshlarida shakllandi. Bu davrda pragmatik pedagogika doirasida «erkin tarbiya» g'oyalari yuzaga keldi.

1911 yilda AQSh Tarbiya byurosi «loyiha» atamasini qonunlashtirdi va u amerika pedagogikasida yanada mustahkamlana boshladi.

O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (projekt) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabanning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

“O'quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi:

- loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish;

- tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;

- qo'lga kiritiladigan natija uchun talabalarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari:

1. Tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyiha maqsadini belgilash).

2. Loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtai nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni talabalar o'rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhli ish, seminar, "aqliy hujam", praktikum...).

3. Amaliy (muammoni tadqiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish).

4. Analitik (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash).

5. Nazorat va baholashga doir (muvafaqqiyatlarni va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, real holat bilan bog'liqlikda loyihaga o'zgartirishlar kiritish).

6. Yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini loyihalash ikki darajada: a) o'qituvchi faoliyati darajasida (ta'lim jarayonining alohida qismlarini loyihalash); b) ta'lim menedjeri faoliyati darajasida (ta'lim jarayonini yaxlit loyihalash) amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini loyihalashda nafaqat har bir tarkibiy qism, balki ular orasidagi aloqalar ham modellashtiriladi hamda loyihalash qonuniyatlari loyihalash

tamoyillarining nazariy asoslarini ishlab chiqishga, pedagogik faoliyat amaliyotida qo'llashga zamin tayyorlaydi.

Loyihaviy ta'limning muhim belgilari:


Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;

Talabalarga mustaqil harakat qilish, (amaliyotga yo'naltirilgan) aniq yakuniy natija olishni ta'minlovchi o'quv muhitini yaratadi;

Muammoga yo'naltirilgan o'quv izlanishini tizimli tashkillashtirish o'quv muhitini yaratadi;

Fan bilimlarini mustahkamlashga va ularni rivojlantirishga yordam beruvchi o'quv muhitini yaratadi;

Haqiqiy hayot bilan ta'limning mustahkam aloqasini o'rnatadi.



2. Loyihaviy ta'lim turlari. Ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy qonuniyatlari va tamoyillari

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida o'quv loyahasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

- 1) yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli;
- 2) fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;
- 3) davomiyligiga ko'ra: uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli;
- 4) loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.

Umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida odatda, fanga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'ladi. Bunday holatda amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy



holatda, o'qituvchi talabalardan fanga doir tarqatma materiallar yoki matematik o'yinlar ssenariysi, frazeologik lug'atlar, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida talabalarda nafaqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi.

O'quv loyihalarining yana bir muhim jihati ularda qandaydir mahsulotning yaratilishida o'z aksini topadi. Ijodiy loyihalar ko'pincha turli janrdagi san'at asarlarini yaratish yoki ijodiy tadbirlar o'tkazish bilan yakunlanadi.

Amaliy yo'naltirilgan loyihalar qoidaga muvofiq moddiy mahsulotlar, ba'zan tadbirlar ko'rinishida yoki yozma ko'rsatmalar, tavsiyalar shaklida tugallanadi.

Tadqiqotchilikka doir loyihalar natijasida ilmiy maqolalar, risolalar, modellar yoki maketlar, o'quv filmlari, taqdimotlar yaratiladi.

Axboriy tavsifdagi o'quv loyihalarining yakuniy natijasi talabalar qog'oz variantda yoki Internetda joylashtirishlari mumkin bo'lgan risola, jadvallar, chizmalar, grafiklar, diagrammalar tarzida shakllantiriladi.

O'yinli va rolli loyihalar deyarli hamma vaqt tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Loyihani ishlab chiqish turli manbalardan: monografiya, jurnal maqolalari, gazeta nashrlari, sotsiologik so'rovnomalar, elektron ma'lumotlarni izlash bilan bog'liq.

Loyiha natijasi – buklet, nashr, Internet sahifasi shaklidagi taqdim etilgan, tanlab olingan, tahlil qilingan, umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan axborotdir.

Masalan: "Etnomadaniyat" fani bo'yicha mashg'ulotda bajarilgan nazariy loyiha va o'zbek xalqining etnoxususiyatlari va etnomadaniyatini tadqiq va tahlil qilishga yo'naltirilgan loyiha "O'zbek xalqiing asrlar davomida shakllangan etno madaniyati" videofilmini tayyorlash bilan boriladi va bu o'quv material sifatida qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonini loyihalashning bir necha qonuniyatlari mavjud. Ular:

1) ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi) ko'lami, loyihalash mazmuni, shuningdek, barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

Mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonini loyihalashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Markazlashtirish tamoyili texnologik jarayonda talabalar faoliyati modelini loyihalashning bosh elementi sifatida ifodalanadi. Ta'lim jarayoni tuzilmasida asosiy tizimlashtiriluvchi ta'lim mazmuni va talaba faoliyati texnologik jarayon hisoblanib, uning mazmunini talabalarning ijtimoiy tajriba asoslarini o'zlashtirib olishga yo'naltirilgan o'quv faoliyati tashkil etadi. Har bir o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni umumiy ta'lim maqsadi va vazifalariga muvofiq belgilanadi. Faoliyatli yondashuv nuqtai nazaridan umumiy o'rta ta'lim mazmunini tashkil etuvchi har bir unsur (element) sub'ekt faoliyatining turlaridan biriga muvofiq kelishi kerak. Sub'ekt faoliyatining turlari, o'z navbatida, aniq modellar yig'indisi sifatida umumlashgan faoliyat modellari orqali ifodalanishi zarur. Talabalar faoliyati modeli tizimlashtiriluvchi element bo'lib, talabaning yaxlit faoliyati mazmunini aniqlashga xizmat qiladi. Markazlashtirish tamoyili loyihalashni quyidagi tartibda amalga oshirishni talab etadi: faoliyat modellarini maqsadga muvofiq yaratish, ularni talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari, vositalarini tanlash (texnologik operatsiyalar), o'quv faoliyatini boshqarish usullari (o'qituvchi faoliyati)ni asoslash.

2. Refleksivlik tamoyili sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi. Loyihalash jarayonida o'qituvchiga doimo ta'lim jarayoni, uning aniq va ideal sharoitlari, talabalarning bilishga bo'lgan ehtiyojlari, ularni to'ldirish imkoniyatlari, shaxsiy sifat va qobiliyatlari, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Refleksivlik tamoyili yaratiladigan ta'lim jarayonining loyihasini ta'lim jarayoni ishtirokchisi – sub'ektning ehtiyojlari va imkoniyatlarini tahlil qilish asosida uzluksiz tuzatib, to'ldirib borishni talab etadi.

3. Natijaviylik tamoyili pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi. Natijaviylik- ijtimoiy tajriba faoliyat modellari mazmuni, texnologik operatsiyalar, ularni o'zlashtirish, boshqarish uslublarini tanlash, o'quv faoliyatining muvofiqligi, ta'lim-tarbiya vositalari, texnologik jarayonda sub'ektning qisqa vaqt va kuch sarflashi vositasida belgilangan maqsadga erishishni nazarda tutishi lozim.

4. Ko'p omillilik tamoyili. Har bir ta'lim jarayoni bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida amalga oshadi. Ular sirasiga o'qituvchi va talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, ta'lim muassasalari atrofidagi ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiiy iqlim muhiti, o'quv muassasasining o'quv-moddiy bazasi, o'qituvchilarning kasbiy malaka darajasi, ta'lim muassasasi yoki ma'lum sinfdagi ma'naviy-psixologik muhit, talabalarning o'quv imkoniyatlari, sinfning intellektual salohiyati, jamoaning shaxslararo munosabatlari kiradi. Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi ana shu omillarni hisobga olishi zarur.

5. Talaba shaxsini ta'lim jarayoniga moslashtirish tamoyili. Bola maktab ostonasiga qadam qo'yganidan boshlab uning faoliyat ko'lami (o'z-o'ziga xizmat, mehnat, dam olish tarzida) kengayadi. Bu kabi faoliyat ko'nikmalarini egallashi natijasida ijtimoiy tajribaga ega bo'lib boradi. Shuning uchun ta'lim jarayonining samarali bo'lishi, uni loyihalashda ta'lim mazmuni va boshqa faoliyat modellari hisobga olinishi, ularni talabalar kundalik hayot faoliyatida egallab borishi ta'minlanishi zarur. Ayni vaqtda umumiy ta'lim muassasalarida shaxsni rivojlantirish va uni ijtimoiy hayotga moslashtirish muayyan qonuniyatlarga muvofiq psixolog va sotsiologlarning ishtiroklari (psixopedagogik tashxis xulosasi) asosida amalga oshiriladi.

6. Ta'lim jarayonida tabiiy rivojlanish va ijtimoiylashuv tamoyili. Tabiiy jarayonlar mohiyatini bilish ta'lim jarayonini samarali, talabalarning yosh xususiyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Tamoyilning mazmuni ta'limni ijtimoiylashtirish, talabalar tomonidan ijtimoiy tajribani individual qonuniyatlarga asosida o'zlashtirilishi bilan izohlanadi.

Ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Loyihalashda talabani o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti

Ma'lumki, lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovations" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"¹.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u innovatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 169-bet.

oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Ilmiy adabiyotlarda “novatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining birbiridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Misol uchun, V.I. Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, “yangi”, “yangilik” tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish darsiga tayyorlanishda birinchi navbatda talabalarga yangi dars materialini yuzasidan qanday me'yorda tayyorlanganligini, buning uchun nimani takrorlash zarurligini aniqlash kerak.

O'qituvchi milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar dasturini, ishchi rejasini, darslik va o'quv ko'llanmalarini, metodik adabiyotlarni va ko'rsatmali qurollarni hozirlagandan keyin navbatdagi darsga tayyorgarlikni boshlaydi. Eng avvalo navbatdagi dars milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar dasturida qaysi o'rinda, qaysi mavzular bilan bog'lik holda, tushunchani nimalarga bog'lab tushuntirish kerakligini aniqlaydi.

Bu savollarning hammasi bayon qilinganidan keyin darsning asosiy didaktik maqsadini va uning tipik xususiyatini kat'iy o'rganish kerakligi kelib chiqadi. Bu esa darsning mazmunini aniqlashga yordam beradi. Darsning didaktik maqsadida uning mazmunidan darsning bir tizimga, ya'ni darsning alohida bo'limlarining birlashishi, ularning organik birligi darsning qismlarini to'ldiradi va o'zaro bir-birini bog'laydi. Darsning reja yoki matnini tuzishda mavzuning didaktik maqsadiga javob beruvchi asosiy qismlarni tuzishdan boshlash kerak. Agar dars yangi bilimlarni bayon qilishdan iborat bo'lsa, o'tgan darsdan nimalarni takrorlash kerakligini, bu asosda yangi mavzuni yaxshi o'zlashtirish mumkinligini, ya'ni mavzudan uy vazifasini tekshirish zarurmi yoki yo'qmi, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun talabalarga qaysi topshiriqni tavsiya qilishligini o'ylab ko'rish kerak. Shundan keyin o'qituvchi qaysi o'quv materialini bilan darsning ayrim qismini to'ldirish zarurligini, o'qitishning qaysi metod va usullarini qo'llash, qanday ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va qo'llash mumkinligini hisobga oladi.

Darsning har bir bo'limini bajarish uchun qancha vakt talab qilishni aniqlash zarur. Tabiiyki, darsning eng katta qismi darsning asosiy didaktik maqsadini yechadigan bo'limga qaratilishi zarur.



Shunday qilib, o'qituvchi quyidagi ishlarni bajarishi lozim:

- o'quv dasturi va o'qituvchi rejasida darsning o'rnini aniqlash
- darsning asosiy didaktik maqsadini aniqlash
- dars mazmunini aniqlash
- dars boskichlarini tuzib chikish
- dars rejasini tuzish
- dars matnini yozish
- dars o'tish metodlarini aniqlash
- darsda va uyga beriladigan vazifalarni bajarish
- ko'rgazmali qurollarni tayyorlash
- har bir bosqichga sarflanadigan vaqtni aniqlash va x.z.

Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarni o'kitish darsining reja yoki matni o'qituvchiga o'kuvchilar bilan bajaradigan ish turining umumiy yo'nalishi va ketma-ketligi namunalarini ko'rsatib turadi.

O'qituvchi dars o'tishda tuzgan reja yoki konspektidan erkin foydalanadi, ba'zan tuzgan rejasidan chekkaga chiqish zarurati tug'iladi. Masalan, talabalar o'qituvchining bayonini yomon tushungan bo'lsalar, qo'shimcha tushuntirish o'tkazadi, talabalar qiynalayotgan bo'lsalar zaruriy yordam ko'rsatadi. Bilimlarni mustahkamlash uchun bilimlarni talabalar qanday tushunganligini bilish maqsadida so'rash, topshiriqlarni bajarishini tekshirib ko'rish mumkin.

4. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirish

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda eng katta e'tibor talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan shu jihat talabalarga o'zini namoyon eta olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi va talabalarni guruhdagi maqomining oshishi, o'z-o'zini baholashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va auditoriya bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar talabalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish shuningdek, o'yinli yoki rolli loyihalar davomida ham amalga oshadi. Bunday loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad muammoni hal etish jarayonida ishtirokchilarning qamrovini kengaytirishda yorqin namoyon bo'ladi. Bunga erishish uchun esa, nafaqat axborotni izlash yoki san'at asarini yaratish, balki boshqalarning ham faoliyatini tashkil etish, ularni ishga jalb eta olish, ishni hamma uchun qiziqarli bo'lishiga erishish lozim bo'ladi.

Aynan oliy ta'lim muassasasi talabalarining yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'yinli va rolli loyihalardan foydalanish ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv loyihalaridan foydalanish jarayonida talabalarning ham individual, ham guruhli faoliyati yo'lga qo'yiladi. O'quv loyihalarini baholashda aniq mezonlar va baholash me'yorlarga rioya etilishi lozim.

O'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlari sifatida quyidagilarni belgilab olish mumkin:

- muammoning dolzarbligi va ahamiyatini yoritib berish;
- muammoning to'liq yoritilganligi;
- muammoni hal etishdagi originallik;
- artistizm va ifodaning yorqinligi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- loyiha yuzasidan savollarga javob bera olish.

Mazkur umumiy mezonlar asosida besh ballik shkala bo'yicha baholashga doir me'yorlar shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

“5” ball: agar talabaning bajargan ishi loyiha mavzusiga to'liq mos kelsa; muammo to'la yoritilgan bo'lsa; daliliy materiallar to'g'ri bo'lsa; muammo izchil, muayyan ketma-ketlikda bayon etilgan bo'lsa; nutqi ravon hamda stilistik va orfografik xatolar mavjud bo'lmasa qo'yiladi.

“4” ball: agar talabaning bajargan ishi loyiha mavzusiga to'liq mos kelsa; daliliy materiallar to'g'ri bo'lsa; muammo izchil, ketma-ketlikda bayon etilgan bo'lsa; matn tushunarli va yorqin ifodaga ega bo'lsa, ishda juz'iy bir yoki ikki kamchilikka yo'l qo'yilgan bo'lsa qo'yiladi.

“3” ball: agar talaba loyiha muammosidan ba'zi o'rinlarda bir oz chetga chiqqan bo'lsa; loyihada ayrim daliliy materiallar yetarli bo'lmasa; ba'zi holatlarda loyihani bayon etish ketma-ketligi buzilgan bo'lsa; matnda ayrim g'alizlik va nutq yorqin ifodaga ega bo'lmasa qo'yiladi.

“2” ball: agar ish loyiha muammosiga to'g'ri kelmasa; dalillar yetarli bo'lmasa; fikrlarni bayon etishda ketma-ketlik va izchillikka rioya etilmagan bo'lsa, matn qisqa va to'liq bo'lmagan ko'rinishdagi gaplardan tuzilgan bo'lsa, yaxlitlikda loyiha mazmunida olti, nutqda esa yettita xatolik mavjud bo'lsa, qo'yiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ta'lim jarayonini loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Loyihaviy ta'limning rivojlanish tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Loyihaviy ta'limning qanday muhim belgilari mavjud?
4. Loyihaviy ta'lim turlarini sanab o'ting...
5. Ta'lim jarayonini loyihalash qanday asosiy qonuniyatlarga tayanadi?



6. Ta'lim jarayonini loyihalashda qanday tamoyillar ustuvor sanaladi?

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

3. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.

4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.

6. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

2-mavzu: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI YO'NALISHIDAGI O'QITUVCHILARNING O'QUV-ME'YORIY HUJJATLARI. METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VA DIDAKTIK TA'MINOT

Reja:

1. Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari.

2. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari.

3. Metodik ishlar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xususiyatlari.

4. Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minoti.

Tayanch tushunchalar: oliy ta'lim, me'yoriy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari(DTS), malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, o'quv adabiyotlari, taqvim mavzuiy rejalar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari, metodik ishlar, didaktika, didaktik ta'minot.

1. Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari

Oliy ta'lim tizimida faoliyat olib boradigan har bir mutaxassis uchun sohaning asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlari davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur me'yoriy hujjatlar oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'zbekiston davlat standarti. O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standartlari. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti" da ta'limga oid bir qator atamalar tavsiflangan. Jumladan, oliy ta'limning davlat ta'lim standarti, **malaka talablari**, o'quv rejasi, o'quv fani dasturi tushunchalari quyidagicha izohlangan:

oliy ta'limning davlat ta'lim standarti – muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi;

malaka talablari – "uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar;

o'quv rejasi – oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

o'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat².

Ta'lim sohasi uchun davlat ta'lim standartini qo'llanish sohasi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti muayyan ta'lim sohasi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavr (magistr)lar o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim muassasasi mazkur ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda ushbu DTS hamda malaka talablari asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartining asosiy foydalanuvchilari:

- oliy ta'lim muassasalarining professor – o'qituvchilari, talabalari;

² Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida .O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda.

- ta'lim sohasining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari;

- rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari;

- Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- abituriyentlar, ota-onalar va boshqa manfaatdorlar.

Ta'lim sohasi uchun Davlat ta'lim standartlarida:

- Qo'llanilish sohasi

- Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish asoslari

- Atamalar, ta'riflar, qisqartmalar

- Ta'lim sohasi bitiruvchilarining kasbiy faoliyatlarining tasnifi Standartning birinchi qismida:

- ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari uchun soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malaka talablari;

- ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bitiruvchilari kasbiy faoliyatining asosiy turlari bo'yicha qo'yiladigan umumiy malaka talablar;

- ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun amaliyot ob'ektlari va ularga qo'yiladigan talablar;

- ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarning tuzilmasi;

- oliy ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;

- oliy ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv yuklamalarining hajmi;

Standartning ikkinchi qismida:

- ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilari uchun soha bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malaka talablari;

- ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malaka talablar;

- ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun amaliyot ob'ektlari va ularga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalarning tuzilmasi;

- oliy ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari o'quv rejalari va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;

- oliy ta'lim sohasi magistratura mutaxassisliklari o'quv yuklamalarining hajmi;

- ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasi pedagog kadrlariga va moddiy-texnik bazasiga qo'yiladigan umumiy talablar;

- ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini baholash beriladi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavr va magistrlar tayyorlashning asosiy ta'lim dasturlari o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi. Ta'lim sohasi uchun davlat ta'lim standartlari kamida 5 yil amalda bo'ladi.

Oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari - ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash, o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta'lim muassasasi muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo'lganda malaka talab asosida o'quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

Muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- loyiha – izlanish;
- ishlab chiqarish, texnologik;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- turli xizmatlar ko'rsatish kabilarni o'z ichiga oladi.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Ta'lim yo'nalishi uchun malaka talablarida:

1. Bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi;
2. Qo'llanish sohasi;
3. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi;
4. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
5. Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan umumiy talablar;
6. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyatlariga qo'yiladigan malaka talablari;
7. Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
8. Ta'lim yo'nalishi o'quv reja fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar;
9. Malakaviy amaliyotga qo'yiladigan talablar;
10. Ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi yuklama hajmi;
11. Malaka talablarining amal qilish muddati o'z mujassasmini topadi.

O'uv rejasi – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari, kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat xisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida o'quv reja normativ hujjat bo'lib u ikkiga bo'linadi.

O'quv reja - oliy ta'lim muassasalarining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun o'rnatilgan tartibda Davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch oliy ta'lim muassasalarining tegishli kafedrasining yetuk professor-o'qituvchilari tomonidan, shuningdek, turdosh oliy ta'lim muassasalarining shu soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarini xamda kadrlarni buyurtmachilarini jalb etgan holda ishlab chiqiladigan - normativ huquqiy hujjat xisoblanadi. O'quv reja tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilib, Oliy va o'rta maxsus



ta'limi vaziri tomonidan tasdiqlanadi va o'quv jarayoniga tatbiq etilgandan keyin kamida besh yil amalda bo'ladi

O'quv reja o'quv jarayonini aniqlashtiradigan eng asosiy hujjat bo'lib unda bloklarning nomlari, o'quv fanlarining nomlari, xajmi, fanlarning o'qitish ketma-ketligi, o'tiladigan dars mashg'ulotlarining (ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya) turlari, joriy attestatsiyalar, malakaviy amaliyotlar, ta'tillar, davlat attestatsiyalari va malakaviy bitiruv ishlarining ximoyasi ko'rsatiladi.

Ishchi o'quv reja oliy ta'lim muassasasining aniq bir ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi uchun namunaviy o'quv rejaga asosan xar o'quv yili uchun ishlab chiqiladigan va o'rnatilgan tartibda OTMning rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektori) tomonidan tasdiqlanadigan o'quv jarayonining normativ hujjati xisoblanadi.

Tegishli ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining ishchi o'quv rejalari Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni grafigini tuzish uchun asos bo'lib xisoblanadi.

OTM o'quv jarayoni grafigida tegishli belgilar asosida xar bir kurs uchun hafta kunlari oylari, nazariy ta'lim, amaliyot, yakuniy nazorat, ta'tillar ko'rsatiladi.

Ishchi o'quv rejalari o'quv rejalarga asosan aniq bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha xar o'quv yili uchun ta'lim dasturlari, o'quv kurslari, fanlari va o'quv yillari bo'yicha ixtisoslik, tanlov va qo'shimcha fanlarni shakllantirgan xolda ishlab chiqiladi va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar namunaviy o'quv rejaga asosan ishchi o'quv rejalarda shakllantiriladi.

Ular:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida olingan bilimlarni to'ldirishi va rivojlantirishi;

- milliy istiqlol g'oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma'naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e'tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;

- ta'limning tarix, falsafa, xalq an'analari, urf-odatlar bilan uzviy birligini, O'zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ta'minlashi;

-insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;

-ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi lozim.

Matematik va tabiiy ilmiy fanlar o'rnatilgan tartibda namunaviy o'quv rejalarga asosan shakllantiriladi.

Ushbu blok:

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurni shakllantirishi;

- koinotning fizik ob'ekt ekanligi va uning evolyusiyasi, tabiiy fanlarning o'zaro fundamental birligi, zamonaviy tabiiy hodisalarni tadqiq etish konsepsiyasi, tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari, tabiatni buzmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;

- muayyan bilimlar sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta'minlashi lozim.

Umumkasbiy fanlar yuqori malakali kadrlarni tayyorlash nuqtai nazaridan kelib chiqqan xolda namunaviy o'quv rejalarga asosan va unga mos holda shakllantiriladi.

Ushbu blok:

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;

- maxsus fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;

- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo'riqlariga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi lozim.

Ixtisoslik fanlari yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ajralmas qismi bo'lib, talabalar tomonidan tanlangan mutaxassislikni turli soxalarida yanada chuqurroq bilim va ko'nikmalarni egallash, shuningdek, magistratura bosqichida o'qishini davom ettirishni nazarda tutgan xolda shakllantiriladi.

Ushbu blok:

- bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha maxsus bilimlarni kasb faoliyati ko'nikmalar va uquvlarni shakllantirishi;

- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga ongli munosabatda bo'lishiga ko'maklashishi lozim.

OTMlardagi mutaxassis chiqaruvchi xar bir kafedra o'zining ixtisoslik fanlari ro'yxatini shakllantiradi. Ixtisoslik fanlari ishchi o'quv rejasining ixtisoslik fanlari blokida ko'rsatiladi. Qo'shimcha fanlar bloki talabalarning ta'lim fanlari bo'yicha qo'shimcha ravishda bilim olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ta'lim sifatiga

qo'yilayotgan talablar va mehnat bozori kan'yukturasi tez o'zgarayotgan sharoitida bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha ta'lim dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlashni inobatga olgan xolda shakllantiriladi.

2. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari

Ma'lumki, o'qituvchining darsga tayyorgarligi 2 qismdan iborat:

- o'qituvchining umumiy tayyorgarligi;
- o'qituvchining kundalik tayyorgarligi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilar ham quyidagi o'quv-me'yoriy hujjatlarga tayanib darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak:

1. fanning DTS yoki malaka talabi,
2. o'quv reja,
3. fanning o'quv dasturi,
4. o'qituvchining yillik taqvim-mavzuiy rejasi,
5. baholash tartibi
6. kunlik dars rejasi,
7. ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi.

Fanning DTS yoki malaka talabi, o'quv reja borasida yuqorida batafsil to'xtalib o'tildi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilari tayanadigan o'quv-me'yoriy hujjatlardan biri fan dasturi bo'lib, u me'yoriy hujjat sifatida Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim faoliyatining asosi bo'lib xisoblanadi.

Unda o'quv fanlari bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy bilim va zaruriy ko'nikmalar nazarda tutiladi.

Fan dasturi ikki turga bo'linadi:

- Namunaviy o'quv dasturi
- Ishchi o'quv dasturi.

Namunaviy o'quv dasturi - o'quv rejadagi aniq fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlariga asosan tayanch OTMLarining tegishli kafedralari tomonidan ishlab chiqiladigan, o'quv materiallarni o'zlashtirishga va o'qitish mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablarni o'z ichiga oladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan, OTMLari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun tavsiya etiladigan me'yoriy hujjat xisoblanadi.

Namunaviy o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta'lim muassasalari kafedralarida tegishli fan sohasidagi yetuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o'qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o'quv dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kirish
- Asosiy qism
- Amaliy mashg'ulot mavzulari
- Seminar mavzulari
- Mustaqil ta'lim mavzulari
- Tavsiya etiladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati.

Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma'lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo'nalishlari ham keltirilishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi tasdiqlangan o'quv rejalariga kiritilgan muayyan fan uchun ajratilgan eng ko'p vaqt byudjetiga moslab, har 20-soatlik material uchun taxminan bir bet hajmda tuziladi. Dastur fan, texnika, texnologiyaning so'ngi yutuqlari, oliy ta'lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi va oliy ta'limda uzluksiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, hususiydan umumiylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilishi shart. Dasturda ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o'zlashtirish, o'qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga mavzularning bir xil talqinida takrorlanmasligiga e'tibor berilishi zarur.

Namunaviy o'quv dasturi tayanch oliy ta'lim muassasasining tegishli kafedrası, fakul'tet yoki OTM uslubiy (ilmiy) kengashida muhokama qilinadi.

Namunaviy o'quv dasturiga kamida 2 ta tashqi taqriz olinadi. Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo'yicha tuzilgan namunaviy o'quv dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi. Barcha fanlar bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlari oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash ekspertizasidan o'tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro'yxatga olinadi va amalga kiritiladi. Namunaviy o'quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro'yxatga olinadi. Bu haqda o'quv dasturning bosh varog'iga belgi qo'yiladi. Namunaviy o'quv dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi.

O'quv dasturi tasdiqlangan va ro'yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi. Namunaviy o'quv dastur davlat ta'lim standartlariga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o'zga xollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o'tishi zarur.

Namunaviy o'quv dasturlarini ko'paytirish va tarqatish huquqi tayanch oliy ta'lim muassasalari va OO'MTV xuzuridagi rivojlantirish markaziga beriladi. Nashr

etish yoki ko'paytirish bilan bog'liq xarajatlarni inobatga olib dasturga narx belgilanishi mumkin.

Ishchi o'quv dasturi - OTMning aniq bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi talabalari uchun o'quv rejadagi aniq bir fan bo'yicha o'quv dasturiga asosan professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan, fanning mazmuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilgan, mavzularning o'qitish ketma-ketligiga rioya qilingan xolda fanga ajratilgan soatlar aniq ko'rsatilgan me'yoriy hujjat xisoblanadi. Ishchi o'quv dasturi tegishli ta'lim standartlarini konkretlashtiradi, o'quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatidan ta'minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o'qitish xususiyatlarini aks ettiradi. Ishchi o'quv dasturi oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturini asosiy qismi sifatida talabalar tomonidan maxalliy shart sharoitlarni xususiyatlarni xisobga olgan holda davlat ta'lim standartiga asosan majburiy minimum talablarni olinishini kafolatlaydi.

O'quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo'yicha qo'llaniluvchi didaktik va texnik vositalar, mavzular va bo'limlar bo'yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko'rsatiladi shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi.

Ishchi o'quv dasturida quyidagilar o'z aksini topishi lozim:

- DTS talablari;
- O'quv dasturlarini mazmuniga qo'yiladigan majburiy talablar;
- Talabalar uchun beriladigan o'quv materiallarining maksimal xajmi;
- Bitiruvchilarni tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar;
- OTM tomonidan o'quv rejaga asosan belgilangan o'quv yuklamasining xajmi;
- Ta'lim dasturlarini maqsadi va vazifalari.

Yuqorida keltirilgan komponentlar asosida ishchi o'quv dasturining tuzilishi ishlab chiqiladi va qoidaga asosan uning tarkibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Titul varag'i
- Kirish so'zi
- Fanning maqsadi va vazifalari
- Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar
- Talabalarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar;
- Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatidan uzviyligi va ketma-ketligi;
- Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni;
- Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar;
- Fan bo'yicha soatlar taqsimoti va hk.

O'qituvchining ishchi taqvim-mavzumiylar rejasi kafedra mudiri tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Dars jadvalidagi o'quv fanlarining dars soatlari va dars soatlarining guruhlar kesimidagi yuklamasi ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan sonlarga mos tushishi kerak. Ishchi taqvim-mavzumiylar reja va dars jadvaliga asosan o'tilgan darslarning mavzulari va sanasi guruh jurnallariga qayd etiladi.

O'qituvchining yillik ishchi taqvim-mavzumiylar ish rejasi va kunlik dars rejasi milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlardan majburiy ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi asosida tuziladi va shu asosda o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'radi.

Oliy ta'lim fan o'qituvchisi va talabalari uchun o'quv adabiyotlari muhim o'rin tutadi.

O'quv adabiyotlarida asosiy tushuncha va xulosalarning ta'riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiylikiga erishilishi. Bundan tashqari har bir ta'lim turining o'quv adabiyotlariga o'ziga xos bo'lgan talablar qo'yiladi.

- o'quv dasturiga to'la mos keladigan va undagi mavzularni to'liqligicha qamrab oladigan shaklda yozish;

- mavzularning soddadan murakkabga tomon o'sishini, hamda o'zaro bog'liqligini ta'minlash;

- rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak;

- darslikdagi takrorlanuvchi tushunchalarga va rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarga e'tiborni jalb etish maqsadida maxsus belgilardan foydalanish zarur;

- fan, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini inobatga olinishi;

- O'zbekistonning turli hududlaridagi talabalarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini va milliy xususiyatlar, turli madaniyatlarning hisobga olinishi;

- talabalar yoshi, saviyasi va psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olinishi, o'g'il va qizlarning qiziqishlarini teng ravishda va to'la darajada hisobga olish kabi ongli tarzda tuzilgan misollar va dalillar mavjudligi.

3. Metodik ishlar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Oliy ta'limning barcha yo'nalishlari qatorida milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida ham metodik ishlarni tashkil etish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Jumladan, nazariy va amaliy mashg'ulotlar rejalarini ishlab chiqish,

ma'ruza matnlari va o'quv uslubiy majmualar tayyorlash, didaktik, ko'rgazmali va tarqatma materiallar, metodik ko'rsatmalar tayyorlash, talabalarning mustaqil, individual va o'quv tadqiqot ishlari, shuningdek ularning bilimni nazorat qilish uchun topshiriqlar va masalalar ishlab chiqish – bularning barchasi metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xos shakllari hisoblanadi.

Metodik ishlar talabalarning auditoriya ishlarining barcha shakllari (ma'ruza, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari) va auditoriyadan tashkari ish shakllari (mustaqil ta'lim, amaliyotning barcha turlari, nazorat, kurs va bitiruv malakaviy ishlari) hamda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini joriy, oraliq va yakuniy nazorat qilishning turli shakllarini o'z ichiga qamrab oladi. Fanlarning metodik ta'minotining asosi sifatida o'quv-uslubiy majmua aks etadi. O'quv-uslubiy majmua talabalarning mustaqil ishlashini samarali tashkil etish va qo'llab-quvvatlash hamda o'quv fanlarini o'qitishda uzluksizlikni saqlash imkonini beradi.

Masalan, oliy ta'limdagi o'quv jarayonining asosiy shakllaridan biri ma'ruza sanaladi, ma'ruzada talabalar ongiga yetkazilgan nazariy bilimlar va masalalar amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi.

O'z o'rnida fan o'qituvchisidan ushbu mashg'ulotlarga yuksak darajada tayyorgarlik bilan kirish talab etiladi.

Ma'ruza – u yoki bu ilmiy masala yoki muammoni to'g'ri, mantiqiy izchillikda va aniq izohlab berish sanaladi. Ma'ruza o'qituvchi shaxsining ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir. Mazkur jarayonda o'qitishning talabalarni ta'lim olish va barkamollikka yo'naltirish, axborot berish, metodologik va tarbiyalash funksiyalarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ma'ruzaning talabalarni ta'lim olish va barkamollikka yo'naltirish funksiyasida talabalarning diqqati o'quv kursi mazmunidagi asosiy g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlar va qonunlarga jalb etish orqali ta'lim olish va kasbni mukammal egallashning ahamiyati, uni o'zlashtirish metodlariga jalb qilinadi.

Ma'ruzaning axborot berish funksiyasi asosiy faktlar, qoidalar, xulosalarning mohiyatini yoritish jarayonida o'qituvchi bilan talabalar hamkorligida amalga oshiriladi. Ma'ruzaning tarbiyaviy funksiyasi ma'ruza jarayonida talaba yoshlarning ongi va qalbiga milliy g'oyani singdirish, o'quv materialiga hissiy baho berish munosabatlarini uyg'otish, qiziqishlarini o'stirish, mantiqiy fikrlash va isbotlashni oydinlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ma'ruza mazmuni va didaktik maqsadiga ko'ra: kirish ma'ruzasi, muammoli ma'ruza va umumlashtiruvchi ma'ruzalarga ajratiladi.

Amaliy mashg'ulotlar quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

talabalarning o'quv kurslari bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash orqali ilmiy dunyoqarashini kengaytirish;

DTS bilan me'yorlangan ko'nikmalarni malaka darajasiga yetkazish orqali talabalarning tayanch va xususiy kompetensiyalarini shakllantirish;

Talabalarning avval o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash orqali ijodiy faoliyat tajribalarini egallashga zamin tayyorlash.

Shuni qayd etish lozimki, o'qituvchi amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini shakllantirishda ularning mazmuni o'qitish shakllari bo'lgan ma'ruzada o'rganilgan nazariy masalalar bilan uzviy bog'liq bo'lishiga e'tibor qaratishi zarur.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi natijalarini o'rganish va tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining talabalarni darsda faol qatnashishi, puxta bilishi, o'quv-qobiliyat mahoratiga doimiy e'tibor qaratishi hamkorlik saviyasini oshirar ekan, shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchi talabani o'zining talab va shartlariga bo'ysunuvchi, itoat etuvchi shaxs deb hisoblamasdan balki uning mustaqilligini, o'ziga xosligini e'tirof etgan holda hamkorlik munosabatida bo'lishi darkor, qolaversa u talabalar bilan dars yuzasidan munosabatlarini tahlil qilishi, taqqoslab bilim berib borishi kerak.

4. Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minoti

Didaktika (ot grech. *didaktikos* – o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim jarayoni, mazmuni, qonuniyat va tamoyillari, shakl, metod va vositalarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogik ta'lim nazariyasi, pedagogikaning alohida sohasi.

“**Didaktika**” atamasi ilk bor nemis pedagogi *Volfgang Ratke* tomonidan “Didaktika, yoki ta'lim san'ati” (1613 y.) deb nomlangan ma'ruzasida qo'llanilgan.

Didaktika ilmiy bilimlar tizimi sifatida birinchi marotaba chex pedagogi *Yan Amos Komenskiy*ning “Buyuk didaktika” (1657 y.) asarida ochib berilgan.

DIDAKTIKANING BAHS DOIRASI

NIMA UCHUN O'QITISH? KIMNI O'QITISH? TA'LIMNING MAQSADI	QANDAY ASOSIDA O'QITISH? TA'LIMNING QONUN, QONUNIYAT, TA'MOYIL, QARORLARI
NIMANI O'QITISH? TA'LIM MAZMUNI	QANDAY O'QITISH? TA'LIM METODLARI TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI TA'LIM VOSITALARI

Quyidagilar didaktikaning asosiy kategoriyalari hisoblanadi:

O'RGATISH – ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati

O'RGANISH – anglash, mashq qilish, va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni, oldin egallanganlari o'zgaradi.

O'QITISH – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan talabalarning tartiblangan o'zaro harakati.

TA'LIM – o'qitish jarayonida egallanadigan bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash usullari tizimi.

BILIM – biror fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi.

KO'NIKMA – o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash.

MALAKA – avtomatlashgan holatga o'tgan ko'nikma, takomillashganlikning yuqori darajasi.

MAQSAD (o'quv, ta'limiy) – o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi.

MAZMUN (o'qitish, ta'lim) – talabalar o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar, faoliyat va fikrlash usullari tizimi.

TASHKIL ETISH – qo'yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

ShAKL – o'quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq.

METOD – o'qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo'li.

VOSITA – o'quv jarayonini predmetli qo'llab-quvvatlanishi. vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, jihozlar va boshqalar kiradi.

NATIJARLAR (MAHSULLAR) – o'quv jarayonining so'nggi natijasi, belgilangan maqsadlarni amalga oshganlik darajasi.

Didaktik ta'minot deganda milliy g'oya, ma'naviyat asoslari, huquqshunoslik va boshqa fanlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv axborotlari mazmuni xilma-xil turlarining didaktik maqsad va vazifalariga ko'ra o'zaro aloqador majmui.

Didaktik ta'minot deganda ma'lum bir qonuniyat, tamoyillar va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga asoslanadigan shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar tushuniladi.

Didaktik ta'minot deganda shaxsning axboriy madaniyatini shakllantirish uchun didaktika, psixologiya, ergonomika, informatika va boshqa fan sohalarining muvafaqqiyatlariga asoslangan holda tashkil etilgan o'quv-uslubiy majmua tushuniladi.

Didaktik ta'minot quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholanadi:

- 1) nazorat topshiriqlari, test savollari bankining mavjudligi;
- 2) o'quv fani bo'yicha didaktik materiallarning mavjudligi: audio-video materiallar, kompyuter dasturlari, jadval, slaydlar, tarqatma materiallar.
- 3) referat ishlari mavzulari.

Didaktik ta'minot o'quv kursini o'zlashtirish uchun axborotlarning to'liqligi va yetarli hajmda bo'lishi, pedagog va talabalarning birgalikdagi intellektual-emotsional o'zaro harakati mazmuni va usullarining variativligi, interfaollik, dialoglik, muammolilik, amaliy yo'naltirilganlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan axborotlarning originalligi va tartibga solinganligi bilan xarakterlanadi. U ta'lim oluvchining axborotlarni o'zlashtirish jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va korreksiyalash maqsadida foydalaniladi va ta'lim oluvchi shaxsini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Masalan, ma'ruza mashg'uloti ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli o'qituvchi mazkur mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishni zamon talablariga mos tarzda ushbu mashg'ulotning didaktik ta'minotini ishlab chiqishi zarur. O'rganiladigan mavzuning mazmuniga ko'ra avvalo, ma'ruza mashg'ulotining tipi (kirish, muammoli, umumlashtiruvchi), maqsadi va vazifalari, foydalaniladigan innovatsion texnologiyalarni aniqlab olishi zarur.

O'qituvchi o'quv fanining o'quv dasturiga muvofiq tuzilgan ishchi taqvim-mavzuiy rejadan o'rganiladigan mavzuni aniqlashi, taqdimot tayyorlashi, mavzu

bo'yicha Keys-stadi topshiriqlari, kichik guruhlarda o'qitish metodidan foydalanish imkonini beradigan o'quv topshiriqlari majmuasini tuzishi lozim.

Mashg'ulotning tashkiliy qismida salomlashish odobiga muvofiq salomlashish, guruhda ongli intizomni vujudga keltirish, davomatni aniqlash, o'tgan mavzu bo'yicha berilgan topshiriqlarni aniqlash nazarda tutiladi.

O'qituvchi yangi mavzu mazmuniga asos bo'ladigan tushunchalarni nazarda tutgan holda mashg'ulotning talabalar bilimlarini faollashtirish qismida Keys stadi topshirig'i asosida fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirishi, mazkur topshiriqlar keng qamrovli, topshiriqlarning murakkablik darajasi va ketma-ketligi talab darajasida bo'lishiga e'tibor qaratishi va talabalarning o'quv motivlarini kuchaytirishi lozim.

Shu bosqichda o'qituvchi o'tgan mavzuni yakunlash va yangi mavzu bilan bog'lash maqsadida muammoli metodlar va ko'rgazma vositalari yordamida muammoli vaziyatni vujudga keltirishi, talabalar faoliyatini muammoni hal etishga yo'llash, talabalarning avvalgi mavzularda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatda qo'llashga zamin tayyorlashi, ulardagi tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashni keng qamrovda o'tkazib, asosiy tushuncha va tayanch so'zlarga urg'u berishi, xulosa yasashi zarur.

Mashg'ulotning yangi mavzuni o'rganish qismida talabalarni yangi mavzuning o'quv maqsadlari, vazifalari, ma'ruza davomida kichik guruhlarining mashg'ulot davomida bajariladigan ishlar bilan tanishtirishi, o'quv maqsadlarini talabalar zimmasiga yuklashi talab etiladi. Yangi mavzuning mazmunidagi asosiy g'oya, qonunlar, qonuniyatlar ko'rgazma vositalar yordamida keng qamrovli yoritilishi, mavzu bo'yicha tushuncha, ko'nikma va malakalar talabalar tomonidan o'zlashtirish bosqichlariga amal qilingan holdashakllantirilishi lozim.

Mavzu bayonida ilmiylik, tushunarlilik, tizimlilik, keng qamrovlilik, nazariya va amaliyot birligi, ta'lim-tarbiya uzviyligi kabi o'qitish prinsiplariga amal qilish, mavzu mazmunini samaradorligini reproduktiv (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy) va faol (muammoli, mantiqiy, ijodiy izlanishli, didaktik o'yinli va h.k.) metodlar, vositalar (ko'rgazmali qurollar, laboratoriya jihozlari, tarqatma va didaktik materiallar, o'quv-texnik va kompyuter vositasi va h.k.)dan uyg'un foydalanish orqali orttirish talab etiladi.

Ma'ruza mashg'ulotida o'rganiladigan mavzuning mazmuniga muvofiq innovatsion va axborot texnologiyalar (muammoli, modulli, didaktik- o'yinli, hamkorlikda o'qitish) tanlanadi. Innovatsion texnologiyalar tanlaganda mazkur texnologiya talablariga muvofiq talabalar bilish faoliyatini tashkil etish nazarda tutiladi va ularning bilim zahirasi, egallangan ko'nikma va malakalari, yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi e'tiborga olinadi.

O'qituvchi talabalarning diqqatining davomiyligini e'tiborga olgan holda mashg'ulot davomida Keys-stadi va aqliy hujum topshiriqlari asosida muammoli vaziyatlarning tug'dirishi, ularni hal etishda talabalar bilimidan foydalanishi, talabalarning bilish faoliyati va ularning mashg'ulotda faol ishtirokini ta'minlashi lozim.

Ma'ruza mashg'uloti mazmuniga bog'liq holda taqdimot materiallarining mavjudligi va o'z o'rnida maqsadga muvofiq foydalanish ma'ruzaning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

O'qituvchining vaziyatga qarab nutqining hissiyotli, og'ir-vazmin bo'lishi, yuqori saviyadagi muloqot madaniyati, o'quv maqsadlari va topshiriqlarini qo'ya olishi, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish ko'nikmalari, o'zini tutishi, mimikasi, his-hayajonini boshqara olishi, talabalarga nisbatan pedagogik insonparvarlashgan munosabati uning yuksak pedagogik mahoratga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ma'ruza mazmunida bugungi kunning dolzarb muammolarini qamrab olingan, talabalarning g'oyaviy-siyosiy yetukligini rivojlantirishga yo'naltirilgan, mavzu mazmuniga bog'liq holda kasbiy yo'naltirilganlik, shuningdek, ta'lim-tarbiyaning uzviyligi amalga oshirilgan bo'lishi lozim.

Mashg'ulot davomida mantiqiy ketma-ketlikda mavzu rejasi to'liq yoritilishi, talabalar tomonidan mavzu mazmunidagi nazariya, g'oya, qonuniyatlar, tushuncha, atamalarni o'zlashtirish jarayonida didaktik qonuniyatlarga amal qilinishi, tushuncha va atamalarning izohi yoritilishi mashg'ulotning zamon talablariga javob berishini ta'minlaydi. Ma'ruzaning yakunida o'qituvchi mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda mashg'ulotni yakunlashi, mazkur jarayonda talabalarning ishtirokini ta'minlashi, talabalar javobidagi tipik xato va kamchiliklarni bartaraf etishi, yakunlashni keng qamrovli, asosiy tushuncha va tayanch so'zlarga urg'u berishi, xulosalashi lozim. Oliy ta'lim tizimida ma'ruza bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlardan ham foydalaniladi, mazkur o'qitish shakllari ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, nazariya va amaliyot birligi funksiyalarini bajaradi.

Yuqoridan qayd etilganidek, o'qitish shakllaridan biri amaliy mashg'ulot sanaladi.

Amaliy mashg'ulot atamasi pedagogikaga oid adabiyotlarda ham keng, ham tor ma'noda izohlanadi. Amaliy mashg'ulot atamasi keng ma'noda mashq, seminar (ularning barcha turlari) va laboratoriya mashg'ulotlarini umumlashtiradi. Amaliy mashg'ulotlarning ma'ruzadan farqlanadigan asosiy belgilaridan biri talabalarning birgalikdagi o'quv maqsadlariga erishish harakatlarida ko'zga tashlanadi. Ular vazifalariga ko'ra ham farqlanadi. Agar ma'ruzada mavzu

nazariy jihatdan bayon qilinsa, amaliy mashg'ulotlarda bilimlar chuqurlashtiriladi, kengaytiriladi va aniqlashtiriladi.

Amaliy mashg'ulotlar talabalar bilimini mustahkamlash, amaliyotga qo'llash va nazorat qilishga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda quyidagi masalalar o'qituvchining diqqat markazida turmog'i lozim: Mashg'ulot boshlanishida mavzuga oid muammoli vaziyatning vujudga keltirilishi, bugungi kunning dolzarb muammolariga bog'lanishi; Nazariya va amaliyot, ta'lim-tarbiyaning uzviyligiga amal qilinishi; Mavzu mazmuniga bog'liq holda talabalar ongi va qalbiga milliy g'oyalarning singdirilishi;

Amaliy mashg'ulotlar o'quv topshiriqlarini shakllantirishda talabalar tomonidan avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanishga zamin yaratish;

Amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari tarkibida fanlararo, boblararo, mavzulararo bog'lanishga asoslangan o'quv topshiriqlarining mavjud bo'lishi, ulardan maqsadga muvofiq o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilash;

Amaliy mashg'ulotlar topshiriqlarini bajarishda asos bo'ladigan tushunchalarni mustahkamlash maqsadida ko'nikmalarni tarkib toptirish bo'yicha topshiriqlardan o'z o'rnida foydalanilish;

Talabalarning bilish faoliyatining tashkil etilish shakli (individual, kichik guruhlar)ni tanlash va shu asosda talabalarning bilish faoliyatini boshqarish yo'llarini loyihalash;

Amaliy mashg'ulotlar mazmuniga bog'liq holda Keys-stadi topshiriqlarini tuzish va o'z vaqtida foydalanish;

Talabalarning amaliy ish topshiriqlarini bajarishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni sanab o'ting...
2. DTS va malaka talablarining farqi nimada?
3. O'quv reja deganda nimani tushunasiz? Uning ishchi o'quv rejasidan farqi nimada?
4. Metodik ishlar sirasida qanday ishlar kiradi?
5. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xususiyatlari nimada?
6. Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalarining mohiyatini izohlang...

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 3160 sonli qarori//Xalq so'zi, 2017 yil, 29 iyul.

2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda.

3. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayèrlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.

4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.

5. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. "Ma'naviyat asoslari" fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. –T.:TDPU,2013.

XORIJ MANBALARI:

1. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy –Schmidt Number: S-3277. On-line since: 24th January, 1995.

2. Michael Freeden.Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)

3-mavzu. MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI YO'NALISHIDAGI FANLARNI O'QITISH SHAKLLARI, METOD VA VOSITALARI

Reja:

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli shakllari. Dars jarayonlarida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish.

2. Interfaol ta'lim metodlari tushunchasi.

3. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari tasnifi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda test metodini qo'llash.

4. Ta'lim vositalari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan vositalar tasnifi. O'quv adabiyotlari.

Tayanch tushunchalar: O'qitish shakllari, an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellari, metod, ta'lim metodlari, interfaol ta'lim metodlari, an'anaviy dars, noan'anaviy dars, metodik usullar, "klaster", "aqliy hujum", "tanqidiy fikrlash", "ajurli arra", "menyular", "debatlar", "sinkveyn", "insert", "zig-zag", "qarorlar shajarasi", o'rganish metodlari, bilimlarni egallash, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim vositalari, o'quv adabiyotlari,

1. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli shakllari.

Dars jarayonlarida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish

Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda odatda an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan keng foydalaniladi.

An'anaviy dars- («markazda o'qituvchi bo'lgan ta'lim modeli»), deb ham atashadi) muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

An'anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Odatda, an'anaviy dars berishga passiv dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin darsda o'quvchilarning faol yoki nafaolligi darsni qanday o'tishga va uni rejalashtirishga bog'liq. An'anaviy darsning samaradorligini oshirish uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligini mutassil rag'batlantirib turish, o'quv materialining mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, turlicha baholash usullari va vositalarini o'z o'rnida qo'llash talab etiladi.

“Ta'kidlash joizki, - deb yozadi – metodist olim B.To'xliiev – interfaol usullarni an'anaviy ta'lim metodlariga mutlaqo qarshi qo'yib bo'lmaydi. Ular bir-birini inkor etadigan, biri boshqasiga halaqit beradigan emas, balki bir-birini to'ldiradigan ta'lim usullaridir. O'qitish jarayonida yo an'anaviy, yoxud interaktiv metoddan birini tanlash kerak qabilida yondashish ma'rifiy jaholatdan boshqa narsa emas.

Ta'lim metodlari son-sanoqsiz va ularning har biri o'zi qo'llanilayotgan vaziyat uchun betakror ahamiyatga egadir”³.

An'anaviy ta'lim modelining afzalliklari:

- Ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq, ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali;
- O'qituvchi tomonidan o'qitish jarayoni muxiti yuqori darajada nazorat qilinadi;
- Vaqtdan unumli foydalaniladi;
- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

An'anaviy ta'lim modelining kamchiliklari:

- O'quvchilar passiv ishtirokchi bo'lib qoladilar;

³ Qarang: To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011, 120-bet.



- O'qituvchining to'la nazorati barcha o'quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;
- O'quvchilar o'qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi;
- Eslab qolish darajasi hamma o'quvchilarda bir xil bo'lmaganligi sababli, sinf bo'yicha o'zlashtirish darajasi past bo'lib qolishi mumkin;
- Mustaqil o'rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan'anaviy ta'lim modelining afzalliklari:

- O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- O'z vaqtida qayta aloqalarning ta'minlanishi;
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- Turli o'qitish usullarining taklif etilishi;
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- Muloqatga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- O'z-o'zini baxolashning o'sishi;
- O'quvchilarning mavzu mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;

- O'quvchining mustakil fikrlay olishi;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- Muammolarni yechish ko'nikmalarining shakllanishi.

Noan'anaviy ta'lim modelining kamchiliklari:

- Ko'p vaqt talab etilishi;
- O'quvchilarni har doim xam keraklicha nazorat kilish imkoniyatining pastligi;
- Juda murakkab mazmundagi material o'rganilayotganda xam o'qituvchi rolining past bo'lishi;

-O'qituvchining o'zidan ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

«Ta'lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi»⁴.

Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to'laqonli yorituvchi ta'rifni aniqlashga bo'lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta'riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta'lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o'zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik

⁴ Lerner I.Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. – Moskva, Pedagogika, 1981,s.35.


mavjud. Aksariyat mualliflar «ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmuidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta'lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.


Ta'lim metodlari doimo u yoki bu o'qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o'zaro shartlanganligini ta'kidlash joiz.

Ta'lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo'ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko'ra):




Chizmadan anglanib turibdiki, ta'lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta'lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o'qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta'lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi. Ta'lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Bu funksiyalar ta'lim metodini qo'llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o'zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funktsiya o'qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta'lim metodi» atamasi bilan birga ko'p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo'llaniladi. U ta'lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta'riflanadi. Har bir ta'lim metodi muayyan ta'lim usullarini chog'ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o'qituvchi faoliyatida tez-tez qo'llaniladigan usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:



1. Interfaol ta'lim metodlari tushunchasi

«Interfaol» tushunchasi ingliz tilidan «interact» so'zidan olingan bo'lib («inter» – o'zaro, «act» – harakat qilmoq) – birgalikda harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, interfaol so'zi birgalikda harakatlanmoq, birgalikda suhbatlashmoq,

birgalikda dialogga kirishmoq, birgalikda kompyuter bilan muloqotda bo'lmoq, odamlar bilan birgalikda muloqotda bo'lmoq kabilarni anglatadi.

Demak, interfaol ta'lim – bu birgalikdagi (o'zaro) ta'limdir. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari – o'qituvchi-o'quvchi; o'qituvchi-talaba; o'qituvchi-tinglovchi va boshqalar o'zaro munosabatda bo'ladilar, birgalikda muammolarni yechishadi, o'zaro axborot almashishadi, topshiriqlarni birgalikda bajarishadi va hokazo.

Sub'ekt-sub'ekt munosabatlarida tomonlar do'stona munosabatda bo'ladilar, o'zaro hurmat, bir-birini qo'llabquvvatlash muhiti ustuvor bo'ladi. Shu tariqa nafaqat yangi bilimlar egallanadi, balki tinglovchi (talaba, o'quvchi)ning anglash, idrok qilish faoliyati rivojlantiriladi.

Interfaol ta'lim – bu anglash faoliyatining maxsus shakli sanaladi. Interfaol ta'limning maqsadi: - ta'lim jarayonining samardorligini oshirish, yuqori natijalarga erishish;

fanlarni o'rganish motivlarini kuchaytirish;

- ta'lim oluvchilarning kasbiy malakalarini shakllantirish va rivojlantirish; - muloqot madaniyatini shakllantirish;

- tahlil va reflektiv qobiliyatlarini rivojlantirish;

- zamonaviy texnika vositalari va texnologiyalarni idrok qilish hamda axborotlarni qayta ishlash mahoratini oshirish;

- axborotlarni mustaqil izlab topish, ularning to'g'riligiga ishonch hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish;

- tinglovchilar (talaba, o'quvchi)ning sinf va auditoriya ishlari hissasini kamaytirish, mustaqil ishlar hajmini ko'paytirish kabilardan iborat.

Ta'limning interfaol shakllari malakasini oshirish kurslari tinglovchilarning auditoriya darslarida, talabalarning mustaqil ishlarini bajarishlarida, o'quvchilarning turli faoliyatlarini tashkillashtirishda foydalanish mumkin.

Talaba kontingenti, fanlarning aniq mazmunidan kelib chiqqan holda ta'limning faol va interfaol shakllanishini ta'lim muassasi belgilaydi, lekin guruhdagi darslar umumiy hajmining 20% kam bo'lmaganligi maqsadga muvofiq.

Ta'limning interfaol shakllari hajmi o'quv dasturi, o'quvmetodik kompleks hamda tematik rejaga kiritilishi lozim. Ta'limning interfaol modelida qaysidir qatnashchining yoki qaysidir g'oyaning ustuvorligi bo'lmazligi kerak. Ta'lim oluvchi ta'limning ob'ektidan hamkorlik sub'ektiga aylanadi. U ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi va o'zining individual yo'li bilan boradi.

Ta'limning interfaol metodlari yadrosini uning faol metodlari-o'qitish shakllari tashkil qilib, ular ta'lim oluvchilarning mustaqil tafakkuri va qobiliyatini rivojlantiradi hamda nostandart kasbiy vazifalarni hal qilishga o'rgatadi. Ta'limning asosiy maqsadi – bu ta'lim oluvchilar tafakkurini rivojlantirish, muammolarni

yechishga jalb qilish, mavjud bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda rivojlantirish, shuningdek, ularning o'z faoliyatlarini mulohaza qilishlari, fikr yuritishlari hamda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

1. Interfaol ta'limning xususiyatlari:

Ta'lim jarayoni shunday quriladiki, unda barcha ta'lim oluvchilar anglash jarayoniga faol jalb qilinib, ularga o'zlarining bilim va ko'nikmalarini qayta tekshirish, tushunish va sezish imkoniyati beriladi. Talabalarning (o'quvchi) birgalikdagi o'quv materiallarini anglash faoliyati, ularga bu jarayonda o'zlarining bilim va g'oyalari bilan o'rtoqlashish, individual hissasini qo'shish imkonini beradi.

Bu jarayon bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash, tushunish muhitida sodir bo'ladi, bu ularga nafaqat yangi bilimlarni egallash, balki ularning anglash, idrok etish faoliyatini rivojlantiradi hamda muloqot, hamkorlikning yanada yuqori pog'onasiga ko'taradi.

2. Interfaol ta'limning asosiy metodik tamoyillari:

- o'quv, kasbiy so'z, atamalar, shartli tushunchalarni tanlash;
- ta'lim oluvchilar bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni, aniq amaliy boshqaruv va kasbiy faoliyat misollarini har tomonlama tahlil qilish;
- ta'lim oluvchilarning uzluksiz o'zaro vizual aloqalarini qo'llab-quvvatlash;
- har bir darsda kamida bir talabanning (o'quvchi) modeatrolik funksiyasini (vazifasini) o'tashga o'rgatib borish;
- dars jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan, shu jumladan, slaydlardan, roliklardan, filmlardan, videokliplardan, interfaol doskadan faol foydalanish;
- o'qituvchining guruh ichidagi o'zaro aloqalarini qo'llabquvvatlash, har qanday bosimning oldini olish;
- o'quv dasturining tinglovchilar uchun yangi holatlar, tushunchalarni o'rganishda ko'zda tutilmagan qiyinchiliklarning oldini olish;
- darsning individual shakllaridan foydalanish (ijodiy xarakterdagi uyga vazifalarni bajarishda) hamda guruh darslaridagi talabalarning (o'quvchi) foydalanish;
- egallangan natijalar bo'yicha talabalarni (o'quvchi) rag'batlantirish yoki chora ko'rishda o'qituvchi tomonidan belgilab qo'yilgan norma va qoidalarga qat'iy rioya qilish;
- qat'iy reglament va axborot noaniqligi mavjud bo'lgan hollarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish.

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda

yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta'lim metodlari mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba – axborot kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi. O'qituvchi interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil akliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol TTni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'quv jarayonining interfaol TTga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda, hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi.

Barcha ta'lim turlari kabi interfaol ta'lim ham ustuvor tamoyillarga ega:

1. Mashg'ulot – ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
2. Guruhning tajribasi pedagogning tajribasidan ko'p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgan muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol ta'lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- talabalarda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir talabaning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining puxta o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talabalarga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi;
- talabalarda mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;
- talabalarda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- talabalarning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi.

3. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari tasnifi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda test metodini qo'llash

Talaba – yoshlarga milliy g'oya tushunchalari uning bosh va asosiy g'oyalari tushunchalarini singdirish borasida interfaol uslublarni qo'llashning bir qancha turlari mavjud. Bunday uslublardan foydalanish o'qituvchidan o'z ustida ijodiy ishlash, yangiliklardan doimiy xabardor bo'lish bilan birga talaba – yoshlar bilan yanada yaqinroq muloqotda bo'lish va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Shunday usullardan biri “klaster” usulidir. Bu usulning asosiy vazifasi talabalardan o'rganilayotgan pedagogik jarayonni, yangi mavzuni qismlarga ajratish orqali o'zlashtirishga yo'naltiradi. Mavzu boyicha fikr – mulohazalarni erkin bayon etish malakalarini oshirishga yordam beradi. Bu usulda biror – bir mavzu yoki matn tanlanib talaba - yoshlarning diqqatini aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. Talabalar mavzuga oid barcha fikrlarini markazining atrofiga joylashtiradi. Firlar bayon etilgandan keyin har bir fikr yoki so'zlarni toifalarga ajratib chiqadilar: Milliy istiqlol g'oyasi: bosh g'oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish; asosiy g'oyalari – vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglik.

Amaliy mashg'ulot yoki seminar darsi davomida talabalarga topshiriq berish mumkin: milliy g'oyaning asosiy g'oyalari doir fikrlaringizni aytib bering. Shunga doir xalq maqollarini keltiring va ma'nosini izohlang.

Mavzu bo'yicha klaster usulidan foydalanish oxir – oqibatda yangi bilimlarni o'zlashtirish fikrlarning turli – tumanligini yaxlitlash asosida umumiy natija qo'lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun guruh talabalarini kichik ijodiy guruhlarga ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir guruhda mavzuga oid darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, mavzuga oid kartochka va manbalar bo'lishi mumkin.

Klaster usulidan foydalanishda quyidagilarga e'tibor beriladi.

1) Kichik guruhlar soniga qarab chizma qog'ozlari doska taxtasiga osib qoyiladi va milliy g'oya tushunchasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.

2) Mavzuga oid fikrlar qog'ozga yoziladi.

3) Asosiy tushuncha va fikrlar o'rtasidagi bog'liqlik chizmada ko'rsatiladi.

4) Talabalarning firlari umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.

5) Dars jarayonida o'qituvchi talabalarning faoliyatini nazorat qilib boradi, ularning mavzuga oid tushunchalarini baholaydi.

Biz klaster usuli xususida to'xtaldik. Dars jarayonida interfaol usullarning "aqliy hujum", "tanqidiy fikrlash", "ajurli arra", "menyular", "debatlar", "sinkveyn", "insert", "zig-zag", "qarorlar shajarasi" kabi turlaridan va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishiladi.

Jamiyatni axborotlashtirishdagi eng muhim yo'nalishlardan biri ta'lim tizimini axborotlashtirishdir. Bu esa jamiyatni axborotlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirishining asosiy shartidir. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash, uning faol metod va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, yoshlarni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchisi etib tarbiyalash masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'rganish metodlari bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashga hamda metodik va g'oyaviy - siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rin egallaydi. Metod deganda, ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ega bo'lgan ta'limdir. O'qitish metodida o'qitishning obektiv qonuniyatlari, maqsadlari, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

O'qitish metodlarining ko'p o'lchovlilikligi ularning ko'plab tasnifini keltirib chiqaradi.

O'qitish metodlari tasnifi – muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir. Eng asoslangan o'qitish metodlari tavsiflariga quyidagilar kiradi:

1. An'anaviy metod.

Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko'rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar.

2. Maqsadiga ko'ra metodlar tasnifi

*bilimlarni egallash;

* malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;

*bilimlarni qo'llash;

*ijodiy faoliyat;

*mustahkamlash metodlari;

*bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko'ra metodlar tasnifi:

* tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv). Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

*reproduktiv metod: bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o'zlashtiriladi; ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez – tez takrorlash yo'li bilan ta'minlanadi.

*muammoli bayon qilish metodi;

*qisman ijodiy (evristik) metod. Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo'yicha mustaqil fikr yuritiladi, muam- moli vazifalar yaratiladi va hal qilinadi;

* tadqiqiy metod. Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi .

4. Didaktik maqsadi bo'yicha (T.I.Shukina, I.T. Ogorodnikov) qo'yidagilar farqlanadi:

* ilk bilimlarni o'zlashtirish metodlari;

* egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

5. Olinishi zarur bo'lgan natijani oldindan taxmin qilish (maqsadni amalga oshirishga erishish);

6. Ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlash;

7. Muntazam tahlil qilib borish;

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlarni o'qitish metodikasida o'qitish va o'rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o'zlashtirish hamda e'tiqodni shakllantirishni ta'minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiga ma'ruza, talabalarning mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo'yicha ishlar, maslahatlar, ko'rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish hamda e'tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy va laborotoriya mashg'ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o'quv va pedagogik amaliyot kiradi.

3. Bilimlar, e'tiqodlarni shakllantirish va talabalarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o'quv jarayonining reyting baholari, suhbat o'tkazish, kurs va

diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir. Didaktikaga oid adabiyotlarda o'qitish metodlarining quyidagi bog'liqligi qayd qilinadi:

-birinchidan, o'quv mashg'ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog'liq;

-ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog'liq;

-uchinchidan, ta'lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog'liq;

-to'rtinchidan, o'quv jarayonida o'rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog'liq;

-beshinchidan, oliy o'quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog'liq;

-oltinchidan, o'quv jarayonining moddiy – texnik ta'minoti bilan bog'liq;

-yettinchidan, o'qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o'quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o'qituvchining hozirgi zamon metodlari bo'yicha bilimlariga bog'liq.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasidagi oliy ta'limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o'quv – bilish faoliyatini jonlantirish, o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni tadbiq etishga xizmat qiladigan o'qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iborat.

O'qituvchining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- tashkilotchilik
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

(ingl. - sinov birinchi bor 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o'quvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fanlari doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta Amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan ishlab chiqildi. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik metodlar ham qo'llanila boshlandi.

Bunday metodlar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.⁵

XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intelektual) rivojlanish darajasini

⁵Qoraboeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. – T.: Fan, 2006.

aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlana boshladi.

Test tuzuvchilar turli odamlarda reaksiya vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy (intelektual) qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usulida amaliy ishlar olib borish lozimligi to'g'risida xulosa chiqarishga olib keldi. Test sinovlarining asosiy maqsadi ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish metodini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan. O'quvchilarning bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruxlarga ajratishga o'rganib ko'rilgan. Ch.Grin (1926) o'zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagi test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko'rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni berdi:

- test sinovlari uchun mo'ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;

- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo'li bilan aniqlash;

- o'quvchilarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o'rtacha tezligi to'g'risidagi amaliy ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;

- test sinovlardagi fikrlarni bayon qilinish tilining to'g'riligini va mantiqan muvofiqligini tekshirish;

- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to'g'ri va noto'g'ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo'l qo'ymaslik.

Ma'naviyat asoslari fanini o'qitishda muhim vositalardan bo'lgan test nazoratining ijobiy jihatlari:

1. Savodli tuzilgan test ob'ektiv pedagogik o'lchash vositasi bo'lib, uning natijasi imtihon oluvchi o'qituvchiga bog'liq emas.

2. Pedagogik test o'quv materialining dasturiy mazmunini to'liq qamrab olishi mumkin.

3. Test nazoratida texnikani qo'llash oson, bu ma'lum bir materialni yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt, kam kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir.

Test usuli ham ayrim nuqsonlardan xoli emas. Masalan, test o'quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini qoliplaydi, ya'ni cheklaydi; o'quvchi o'zining ruhiy kechinmalarini namoyon qila olmaydi; o'quvchining boshqa shaxsiy sifatlarini baholab bo'lmaydi.

Shunga qaramay, pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari juda katta. Testdan to'g'ri va o'rinli foydalanish ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'qish va o'qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi, o'quvchining bilish faolligini oshiradi. Test topshiriqlariga qo'yiladigan didaktik talablar mavjud. Tuzilgan test topshiriqlarini hammasini ham birdek ishonchli deb bo'lmaydi. Test savollari mukammal bo'lishi uchun ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilishi zarur.

Bular quyidagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o'quv materialining maqsadga muvofiqlari; material ahamiyatliliigi; ilmiy aniqlik; izchillik; to'kislik va uyg'unlik; o'zlashtirish darajasiga ko'ra tabaqalashtirish; samaradorlik; til ravonligi va aniqligi; bir ma'nolilik; qat'iy belgilangan vaqt; ixchamlik; murakkablik meyori; to'g'ri javobda qo'shimcha belgilarining mavjud emasligi; variativlik; shaklan va mazmunan o'zaro bog'liqlik.

4. Ta'lim vositalari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan vositalar tasnifi.

O'quv adabiyotlari

O'qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy obektlar, shuningdek, inson tomonidan o'quv – tarbiyaviy jarayonda axborot olish, pedagog va o'qituvchilar faoliyatida o'z oldiga qo'ygan va o'qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo'llaniladigan qurol sifatida yaratilgan sun'iy obektlar hisoblanadi.

O'qitish vositalari, shu bilan birga, ularning mazmun, uslub va tashkiliy shakllari loyihalashtirilgan o'quv – tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo'limlaridan biridir. Mazkur holat har bir o'quv – tarbiya muassasasining eng muhim tarkibiy xususiyatidir. Milliy g'oya ta'limi jarayonida qo'llaniladigan turli – xil moddiy o'qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog'liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, yangi axborot texnologiya vositalarining yetarli darajada keng qo'llanilishi malum jarayonni loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda an'anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta'lim oluvchilarning turli mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo'lib) nazarda tutgan uslublarni o'qitish mazmuni va maqsadi u yoki bu o'zgartirishlarni inobatga olib kiritish samarali natijalar beradi. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo bo'lishi o'quv dasturlariga ta'lim

Ta'lim oluvchilarga taqdim etiladigan model va mulyaj (maketlar)lar ham xuddi tabiiy obektlar singari demokratsion va tarqatma qo'llanmalarga bo'linadi.

O'qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko'p qo'llanilayotgan vositalar – bu plakatlardir. Plakatlar - quyidagi talablarga javob berishi shart.

- plakatning mazmuni o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lishi;

- plakatda ifoda etilgan chizma yetarli darajada katta va uzoqdan ham ko'ra olish imkonini berishi kerak;
- plakatdagi obektlar tabiiy holatlarida ko'rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarning qismlari masshtab mutanosibli asosida berilishi kerak;
- eng e'tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko'rsatilishi lozim.

5. Ekran va ekran – tovushlik o'qitish vositalari. Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o'qitish vositalaridandir. Bu o'qitish vositalariga qo'yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oid, ikkinchidan, sifatli bo'lishidir.

Diopozitiv (slyad) – bu harakatlanmaydigan o'qitish ekran vositasi. Diopozitiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diopozitiv – bu juda qulay o'qitish vositasi, chunki o'qituvchi yordamida materialning qismini, yoki bir kadrni alohida ko'rsatish mumkin. Qar bir kadr to'liq bir informatsiyaga ega. Diofilm ham harakatlanmaydigan ekran vositasidir. Bu qo'llanmalarning uslubiy g'oyasi mualliflarining kadrlar ketma-ketligini taminlanishiga e'tibor berishlaridir. Kadrlarning ketma-ketligi o'zgarsa informatsiyaning qabul qilinishida mazmun buzilishi ro'y beradi. Diafilmlarni qo'llashdagi qiyinchilik – ulardagi axborotning ko'pligi va ularning qabul qilib olish uchun vaqtning yetmasligidir.

Bu qiyinchilik darsda diofilmlarning ayrim fragmmmentlarini (bo'laklarini) ko'rsatish orqali yengillashtiriladi.

6. Transporantlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo'llanmasi. Transporantlarning grafproyektor yordamida ko'rsatilishi va xonani qorong'ilatish shart emasligi bu o'qitish vositasining muhim jihatidir. Transporantlar sinf doskasi ham o'rnini bosadigan vositadir. O'qituvchi ta'lim oluvchilarga yuzlangan holda, o'tilayotgan mavzu yoki chizmalarni ekranga proeksiya qilish orqali tushuntirishi mumkin. Bu orada o'qituvchi chizmalar mazmuniga kerakli o'zgartirish yoki to'ldirishlar kiritish mumkin. Bundan tashqari transporantlarda informatsiyani taqdim etishda bir kadrning o'rniga ikkinchisiga qo'yish juda qulaydir. Transporantlar odatda 6-8 kadrдан iborat seriyalardan iborat bo'lib, u o'qituvchi tomonidan ham yasalishi mumkin.

7. O'quv kinofilmlari yaqindagina eng samarali o'qitish vositasi deb e'tirof etilgandi. Uning ko'rgazmalikligi quyidagi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katta hajmli informatsiyaning ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayohat qilish, jarayonni tezlanish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to'xtatish, lirivintikasiya yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyasini boshqarish bilan tanishtirish, fan arboblari

faoliyati haqida ma'lumot berish ilmiy – tekshirish laboratoriyasiga «kirish», turli vazifalarni qo'yish, ularni ijobiy hal etish, hamda qiyoslash o'quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

So'nggi yillarda o'quv filmlari ishlab chiqarilmay qo'ydi. Ularni o'rnini o'quv video yozuvi, informatsiyani aks ettiruvchi ekran – tovushli vositalari kino, radio, televidiniya, videofilm va diopozitivlarni.

Video yozuvini qancha lozim bo'lsa, shuncha marta takrorlanish mumkin, vaqt ko'rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatni ochib beradi. Kelajakda o'qituvchilarni tayyorlash va ular malakasini oshirish maqsadiga xizmat qiluvchi video yozuvi tizimlari chiqiladi.

O'quv materialini mustaqil o'rganishda o'quv yozuvlari katta ahamiyatga ega.

O'quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o'ta ahamiyatli bo'lgan qismini tashkil qiladi. Eng, avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

8. Trenajerlar – texnika vositalarining alohida guruhiga kiradi. Trenajerlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi.

Trenajyorlar uch guruhga bo'linadi:

– Avtomobil va ximiyaviy ishlab chiqarish texnologiyasini trenajerlari (modellashtirish yordamida o'rganiladi).

– Aniq bir intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan trenajerlar. Masalan: trenajer imitatorlar, stanoklarni naladka qilish imkonini beruvchi trenajerlar.

– Biror bir xarakatlanish ko'nikmasini hosil qilish uchun trenajerlarning alohida turi qo'llaniladi. Masalan: metalni aralash, detallarning figurali qilib yasalishi uchun xizmat qiluvchi trenajerlar.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari ta'limi vositalariga **ikkinchidan**, darslik va o'quv qo'llanmalar kiradi. O'quvchilarning ijodiy izlanishi, qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, ijodiy foydalanishda darsliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikdan foydalanish, u bilan ishlash yo'llarida modul ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda mavzu, tugallangan fikrni qismlarga, qism esa blok modullarga ajratiladi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari ta'limining **eng muhim xususiyatlardan biri** o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. O'quvchi-talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir: bilimga va o'quv maqsadlariga bo'lgan chuqur, har tomonlama qiziqish; aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish; diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to'plash. Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 shakl ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda tayyor bilimlarni egallashga tayyorgarlik, qizg'in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;
- aplikativ faollik – unga qizg'in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;
- izohlashdagi faollik – ma'no-mazmunni qizg'in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;
- produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg'in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Hech kimga sir emaski, axborot – kommunikatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Texnologiyalarga asoslangan o'quv jarayonini tashkil qilishda **yana bir vosita** elektron darsliklar muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, elektron darslik deganda, ilgari oddiy matn fayli tushunilar edi. Hozirgi kunda elektron darslik deganda, oddiy elektron nusxa emas, balki rangli rasmlar, turli xil testlar, jadvallar, lavhalar, ovoz, video – ko'rgazmalarnig zamonaviy tartibi, texnikasi tushuniladi. Shuning uchun ham elektron darsliklar masofaviy o'qitish tizimining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'naviyat asoslari darslarida qo'llaniladigan **samarali vositalar sirasiga** video – ko'rgazmalarni ham kiritish mumkin.

Video – ko'rgazmalarning qulayliklari:

- o'quv dasturi asosida o'rganilishi kerak bo'lgan materiallarni o'quvchilarga ixcham, qulay ko'rinishda taqdim etish;
- texnik vositalarning o'quvchi bilan interfaol usullarda muloqatda bo'la olishi;
- o'quvchilarning o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'rganishi va olgan bilimlarini test sinovlari asosida sinab ko'rishi mumkinligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2011 yil 29 martdagi yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"ning 3.2.-bandida uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasiga mos o'quv adabiyotlarining turlari turkum fanlar kesimida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan:

Ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar uchun:

- tarbiyachilar va ota-onalar uchun qo'llanmalar;
- qo'rgazmali qurollar;
- didaktik ta'limiy o'yinlar.

Umumta'lim fanlari uchun:

- asosiy darsliklarga o'quv metodik qo'llanmalar;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar; kompyuterli mashg'ulot va o'yinlar;
- kerakli ma'lumotlar to'plami;



- ma'lumotlar banki va lug'atlar.

AL: umumta'lim va chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar hamda KHK: umumtalim, umumkasbiy va maxsus fanlar uchun:

- asosiy darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar; ma'ruzalar kursi; ma'ruzalar matni; metodik tavsifnoma va ko'rsatmalar; ma'lumotlar to'plami va banki, lug'atlar.

Umumta'lim, umumkasbiy, maxsus va qo'shimcha fanlar uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- ma'lumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest.

Umumiy metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- malumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest;
- ilmiy ommabop adabiyotlar.

Ilmiy metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- tegishli sohalarga oid umumiy adabiyotlar;
- o'quv va metodik adabiyotlar; ilmiy ommabop adabiyotlar.

Umumiy metodologik va maxsus fanlar uchun:

- tegishli sohalarga oid o'quv va umumiy adabiyotlar;
- ilmiy-metodik va ilmiy-nazariy adabiyotlar.

“Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi”da o'quv adabiyotlarining quyidagi shakl va turlari ko'rsatib o'tilgan:

O'quv adabiyotlarining shakllari

O'quv adabiyotlari — muayyan ta'lim turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

- **An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar** - ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

- **Elektron o'quv adabiyotlar** – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

O'quv adabiyotlarning turlari

Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quv adabiyotlarning quyidagi turlari qo'llaniladi: darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, metodik ko'rsatmalar, metodik qo'llanmalar, ma'lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

Darslik – davlat ta'lim standartida belgilangan asosiy o'quv materialini qamrab olgan holda, bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga, hamda amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Har bir ta'lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o'z darsliklari bo'ladi. Darslikda nazariy ma'lumotlardan tashqari, amaliy-tajriba va si-nov mashqlari bo'yicha zarur ko'rsatmalar beriladi.

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan nashr.

O'quv qo'llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoritiladi. Masalan, "Mexanika" fizika fanining mexanika qismiga bag'ishlangan o'quv qo'llanma. "Fizikadan masalalar to'plami" – fizika fani bo'yicha masala va mashqlar yechishga mo'ljallangan o'quv qo'llanma va hokazo.

Lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug'at – so'zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo'llashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltirilgan, qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ma'lumotlar to'plami – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan ma'lumotlar, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi qisqa ma'lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma'lumotlar to'plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi mumkin.

Ma'ruzalar kursi - fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan.

Ma'ruzalar to'plami — muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Uslubiy ko'rsatma — muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Uslubiy qo'llanma - o'qituvchilar (professor-o'qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Sharh - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan meyoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g'oyalarni, fikrlarni va ta'riflarni izohlovchi, muayyan masalalar yechimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Dayjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

Elektron darslik – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;

– multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

– taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Ma'lumotlar banki - axborot texnologiyalarning imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan. Statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

Metodik tavsiyalar – ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini amalda tadbiq etish bo'yicha qisqa va aniq bayon etilgan takliflar majmuidan iborat metodik nashr. Metodik tavsiyalarda o'quv jarayoniga o'qitishning interaktiv usullari, pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish bo'yicha tavsiyalar nazariy jihatdan emas balki ko'proq amaliy namunalar asosida bosqichma-bosqich berilishi maqsadga muvofiq.

Monografiya - ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan bosma nashr.

Elektron nashr (EN) - bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqali, videofoto va boshqa axborot obektlaridan iborat bo'lgan jamlanmasi hisoblanadi. EN magnitli (magnit tasmalarda, magnit disklarda), optik (CD-ROM, CD-I, CDQ, CD-R, CD-RW, DVD) elektron axborot tashuvchi vositalarida hamda kompyuter tarmog'ida taqdim etilishi mumkin.

Elektron o'quv nashri - ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko'nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta'minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialga ega bo'lgan elektron nashr.

Elektron lug'at - an'anaviy «qog'ozli» lug'atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so'z yoki so'zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko'rsatma bilan istalgan dasturdan chiqarilishi mumkin. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obektlarning butun spektrlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Elektron uslubiy qo'llanma - pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo'llanmada pedagogik tajriba mashg'ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan o'quvchilar ishlarini darslar bo'yicha rejalashtirilgan shaklda ko'rsatiladi.

Elektron o'quv qo'llanma - fanning o'quv hajmini qisman yoki to'liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o'z ichiga olgan bo'lib, masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan.

Elektron ma'ruza – interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo'llab, o'quv fani ma'ruza materialini namoyish qiluvchi multimedek tizim.

Nazorat savollari

1. Interfaol ta'lim metodlari deganda nimani tushunasiz?
2. An'anaviy ta'lim modelining afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Noan'anaviy ta'lim modelining afzalliklari va kamchiliklari Nimalardan iborat?
4. O'rganish metodlari haqida tushuncha bering...
5. O'qitish metodlari deganda nimani tushunasiz?
6. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari ta'limida qo'llaniladigan qanday o'qitish metodlarini bilasiz?

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g'oya”. -T.: Akademiya, 2000.
9. Qoraboeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. – T.: Fan, 2006.
10. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.



11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

12. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.

13. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma'naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. – T.:TDPU, 2013.

14. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

15. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

16. Larner I.Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. – Moskva, Pedagogika, 1981,s.35.

4-mavzu: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMIGA KREDIT – MODUL TIZIMINI JORIY ETISH

Reja:

1. Ta'limning kredit-modul tizimi, mazmun va mohiyati.
2. Kredit-modul tizimi va oliy ta'lim tizimidagi mukammal o'lchov birligi.
3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. O'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. Fanlarni tanlash imkoniyati. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi.

Tayanch tushunchalar: Kredit-modul, kredit-modul tizimi, o'qitishning modul texnologiyalari, kredit o'lchovi, kredit-modul tamoyili, ECTS kredit-modul tizimi, ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari, o'qish yuklamasi, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etish, o'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti, fanlarni tanlash.

1. Ta'limning kredit-modul tizimi, mazmun va mohiyati

Ta'lim tizimi samaradorligini o'qituvchi saviyasi, talaba ehtiyoji, o'quv adabiyotlari mazmuni hamda mustaqil ta'limni shakllantirishga qaratilgan infratuzilma bevosita ta'minlab beradi. Demak, ilg'or kadrlarni tayyorlash, ularni mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini oshirish, ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida yo'lga qo'yilgan ta'lim berish jarayoni bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yilning 8 oktyabrida “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu muhim dasturilamal hujjatda "respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish va oliy ta'lim - muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish" belgilab berildi.

Shuningdek, 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Xo'sh, bundan ko'zlangan maqsad nima? Bugun va kelajak uchun mazkur mexanizm qay darajada foyda keltiradi? U yangi O'zbekistonning strategik maqsadlariga qanchalik mos? Uning o'zi nima?

Kredit-modul tizimi, bu – ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini liberalizatsiya qilish, talabning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot "kredit soati" tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 — 1880 yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Modul — bu, bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2 - 4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejasi, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;
- o'qitishning qisqacha bayoni: ta'lim berish usul hamda vositalari; bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) — talabning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit — talabning me'yoriy hujjat

bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik "aktivi"ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga, nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

2. Kredit-modul tizimi va oliy ta'lim tizimidagi mukammal o'lchov birligi


Bizga ma'lumki, hayotda ko'p narsalarni o'lchov birligi mavjud. Masalan, vaqt o'lchov birligi – soniya, soat, uzunlik o'lchovi – metr, og'irlik – kilogramm, suyuqlik – litr, elektr kuchlanishi o'lchovi – volt.

Savol tug'iladi: ta'limning, xususan oliy ta'limning ham o'lchov birligi bormi? Siz «ha, bor, oliy ta'limning o'lchov birliklari bu bakalavr, magistr va doktor» deb aytasiz. Lekin bular ta'limning o'lchov birliklari emas, balki uning darajalari hisoblanadi.


Kredit-modul tizimi avvalambor mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kirmoqda.

Unga ko'ra, universitetda o'tiladigan har bir fan endilikda undagi o'qish yuklamasi miqdoriga qarab, **kreditlarda** aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60ni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrda iboratligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Bakalavr dasturi odatda 4 yilligi hisobga olinsa, talaba ushbu darajani qo'lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to'plashi talab etiladi.



Kreditlar shunchaki raqamlar emas. Har bir kredit talaba bajarishi kerak bo'lgan ma'lum miqdordagi o'qish yuklamasini bildiradi. ECTS kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25-30 soatlik o'qish yuklamasini anglatadi. Bu degani, agar fan 6 kreditli fan bo'lsa, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan miqdordagi kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 150-180 soatlik o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi ($25 \cdot 6 = 150$; $30 \cdot 6 = 180$).



Shunday ekan, kredit-modul tizimini joriy etgan OTMlarda talabalar har bir fan uchun belgilangan kreditlar miqdoriga qarab, o'qish hali boshlanmasdanoq har bir fanni o'qish va o'rganishga qancha vaqt sarflashlari kerakligini bilib oladilar. Bu ham ta'limda shaffoflikning bir ko'rinishidir. 1 kredit o'qish yuklamasi (25-30 soat oralig'ida) aynan necha soat bo'lishini odatda har bir OTM o'zining ichki qoidalarida belgilaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 1 kredit uchun belgilangan 25-30 soatlik o'qish yuklamasi bu fanni o'rganish uchun sarflanadigan jami harakatlar jamlanmasi bo'lib, unga nafaqat dars vaqti, balki talabaning fanni o'rganish uchun uyda va kutubxonada sarflagan vaqti, imtihonlar vaqti, qo'yingki talaba ushbu fanni o'zlashtirish uchun sarflagan barcha tizimli harakatlari vaqtini qamrab oladi.

Shunda talabada ushbu umumiy o'qish yuklamasining aynan qancha qismi darsga, auditoriya soatlariga to'g'ri keladi degan savol tug'ilishi mumkin. Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60

foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi, ya'ni talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi.

Bunda OTM 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilangan bo'lsa, undan 12 soati ($30 \cdot 40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30 \cdot 60\% = 18$) esa talabani mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 40\% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30 \cdot 6) \cdot 60\% = 108$) uyda va kutubxonada mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi.



Yuqoridagi qoidalardan shuni tushunish mumkinki, ECTS kredit-modul tizimida talabani bilim olish vaqti tushunchasi dars vaqti tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbayi faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqti tushunchasiga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Talabani o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi talaba ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z elkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini ham bildiradi.

1 soat auditoriya vaqti uchun talaba 1,5 soat uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyatiga ham bog'liq. Chunki talabalar o'z vaqtlaridan samarali foydalanishlari uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun qiziqarli materiallar va topshiriqlar berib borish o'qituvchining vazifasidir.

Shuning uchun kredit-modul tizimiga o'tish o'qituvchilarning ish yuklamalarini ham qayta ko'rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o'qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa o'qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog'lab qo'yilgan. Talabani o'qish yuklamasi bu tarzda – auditoriya va mustaqil o'qish soatlariga ajratilishi

OTMLar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o'quv qo'llanmalari ko'lamini yanada kengaytirishni ham taqozo etadi.

Bularning barchasi ECTS kredit-modul tizimining miqdoriy tushunchalari va ishlash mexanizmi haqidagi asosiy qoidalardir.

3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari

Barcha ta'lim yo'nalishlaridagi kabi Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Eng avvalo shuni qayd etish zarurki, kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi. Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan ob'ekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim olishning ahamiyati ortadi va bu kelajakda mutaxassislarning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda faolligini oshirishga olib keladi. Kredit-modul tizimida universitet talabalari har doim o'qituvchi va kursdoshlaridan yordam hamda maslahat olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa o'zaro hamjihatlikni mustahkamlaydi va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilariga bo'lgan majburiyat hamda talabni ham oshiradi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, modulli o'qitish tizimi bilan o'qituvchi nafaqat axborot beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyalarini, balki maslahatchi hamda muvofiqlashtiruvchilik vazifalarini ham bajaradi. Pedagogik jarayonda o'qituvchining yetakchilik roli saqlab qolinadi.

Ammo shuni ham qayd etish lozimki, "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishida har qanday xalqaro tajribani ko'r-ko'rona, o'z qadriyatlarimizni hisobga olmasdan turib, to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etish, uning har bir elementini chuqur tahlil qilmasdan, ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshirilmas ekan, kelajakda ma'lum bir salbiy holatlarning yuzaga kelishini ham unutmash kerak.

Ya'ni ushbu tizim bizning dunyoqarashimiz, shart-sharoit, barkamol insonni voyaga yetkazishga qaratilgan qadriyatlarimizga to'la-to'kis mos keladi, degani ham emas. Shu sababli, o'quv jarayonining faol elementlari hisoblanmish professor-o'qituvchi va talabaning ham bu boradagi qarashlarini o'zgartirishimiz, mazkur tizim talablarini ularga singdirishimiz, o'ziga xos madaniyatni shakllantirishimiz darkor.

Kredit-modul tizimiga o'tishning muhim jihatlaridan yana biri bu – **o'quv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishidir**. Unga ko'ra, talabalar o'qishning

dastlabki yillarida sohaga oid asosiy, umumkasbiy fanlarni o'zlashtirib, soha bo'yicha umumiy bilimni egallab olganlaridan so'ng, sohaga oid maxsus fanlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'zlari tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda OTM talabalarga o'quv yili davomida taklif qilinayotgan tanlov fanlarning ro'yxatini va ular haqida batafsil ma'lumot taqdim etadi. Talabalar esa ushbu ro'yxat va ma'lumotlar asosida o'zlari qiziqqan fanlarni tanlaydilar. Bu jarayon har bir talaba o'zining bakalavriat yoki magistratura o'qish dasturini ma'lum ma'noda o'zi shakllantirishiga imkon yaratadi. Ya'ni, guruhda 50 nafar talaba bo'lsa, ularning har biri o'z qiziqishlariga ko'ra o'z o'qish dasturlariga ega bo'lishadi.

Tanlov fanlari soni kursdan kursga ko'payib borishi zarur bo'ladi. Chunki talaba kursdan kursga o'tgani sari mutaxassis sifatida shakllanib boradi va unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanib boradi. OTMlar esa asta-sekinlik bilan talabalarga o'z fakultetlaridan tashqarida, ya'ni boshqa fakultetlardan ham tanlov fanlari olishga imkoniyat yaratishlari zarur.

Shu sababli ham "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining "Tanlov fanlar" va "Qo'shimcha fanlar" blokida ajratilgan soatlar kesimida talabalarga 2- yoki undan ortiq fanlarning ruyxati va ushbu fanlarning o'quv dasturlari taqdim etiladi. Talabalar ushbu fanlarning mazmun va mohiyati bilan atrolicha tanishib chiqqach o'zlariga ma'qul fanlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. O'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. Fanlarni tanlash imkoniyati. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ECTS kredit-modul tizimida talaba har bir o'quv yili uchun to'plab borishi kerak bo'lgan kreditlar miqdori oldindan belgilab qo'yilgan. Bu 60 kreditni tashkil qiladi. Har bir semestr uchun belgilangan kreditlar miqdori esa 30 kreditni tashkil qiladi. Bundan tashqari, talaba har bir kreditni qo'lga kiritish uchun belgilangan o'qish yuklamasi miqdori ham aniq va bu 25-30 soat oralig'ida. Shunday ekan, talabalarining har o'quv yilidagi o'qish yuklamasi o'rtacha 1500-1800 soat ($60 \cdot 25 = 1500$; $60 \cdot 30 = 1800$), har semestrda o'qish yuklamasi esa o'rtacha 750-900 soatni tashkil etadi ($30 \cdot 25 = 750$; $30 \cdot 30 = 900$). Talabaning bir yillik va bir semestrda o'qish yuklamasi bu miqdordan ko'p ham, kam ham bo'lishi mumkin emas.

Shunday ekan, talabalarining bir o'quv yili yoki bir semestr davomidagi o'qish yuklamasi ECTS kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan barcha universitetlarda deyarli bir xil bo'ladi. Bu birxillik o'quv dasturlariga barqarorlik va muvozanat olib kiradi. Endilikda OTMlar talabalarga bir semestrda 7ta fan, ikkinchi semestrda esa 10ta fanni o'qishga majburlashi qiyinlashadi. Amaldagi tizimda esa bunday barqarorlik va muvozanatga kafolat yo'q edi. Shuning uchun talabalar bir semestr

davomida ba'zida 7ta, ba'zida 8ta, va yana boshqa semestrda esa 10 fanni o'qishlariga to'g'ri kelyapti.

Hozirda aksariyat mahalliy universitetlarda talabalar bir semestr davomida odatda 8-10tagacha fanni o'qishiga to'g'ri kelmoqda. Aslida 8-10 fanni 4 oy ichida har tomonlama o'rganish — muammoli masala. Mamlakatimizdagi amaldagi oliy ta'lim standartlari to'g'risidagi qoidalarda ham OTMlar talabalarga haftasiga 36 soatgacha auditoriya mashg'ulotlari belgilashi mumkinligi qayd etilgan. Bu 5 kunlik o'quv haftasida kuniga 7 akademik soatni anglatadi. Bunday holatda aksar talaba fanlarni tom ma'noda o'rganish o'rniga kunini shunchaki darsdan darsga, xonadan xonaga yugurib o'tkazadi. Qolaversa, shuncha vaqtni auditoriyada o'tkazgan talaba darsdan tashqaridagi vaqtini o'qishga sarflashiga ishonish qiyin.

Kredit-modul tizimida esa kreditlarning fanlar bo'yicha o'rtacha taqsimoti 5, 6 yoki 7.5 ni tashkil etadi. Bu degani talaba bir semestrda ko'pi bilan 4, 5 yoki juda bors 6 fan o'rganadi ($30/7.5=4$; $30/6=5$; $30/5=6$). Bu talabalar semestr davomida o'rganishi zarur bo'lgan fanlarning soni amaldagidan ko'ra ancha qisqarishini anglatadi. Ya'ni kredit-modul tizimi OTM o'quv dasturlariga me'yor va sifat olib kirishi, ta'limni tashkil etishda son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tishiga xizmat qiladi. Chunki fanlar soni bu tarzda qisqarishi talabalar o'z vaqt va imkoniyatlarini shu kam sonli fanlarni chuqurroq va har tomonlama o'rganishlariga imkoniyat yaratadi.

O'qishning dastlabki yillarida soha bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lgandan so'ng talabalarda ayrim yo'nalish va fanlar bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lish va kelajakda shu yo'nalishda ishlashga ishtiyoq paydo bo'lishi tabiiy. Talabalar yildan yilga mutaxassis sifatida shakllanib borar ekan, ular uchun o'qish dasturidagi ayrim fanlarning ahamiyati ortib, ayrim fanlarning ahamiyati kamayib boradi.

Hozirda universitetlar qat'iy belgilab qo'yilgan o'quv dasturlari asosida ish yuritadi. Ya'ni, talabalar o'qishga kirgandan boshlab to bitirgunga qadar dasturda belgilangan barcha fanlarni o'rganishga majbur. Bu qay darajada to'g'ri? OTMda ta'lim olayotgan talabalar qat'iy belgilangan standart o'quv dasturi asosida ta'lim olishi shartmi? Dasturdagi barcha fanlar har bir talabaning qiziqishlari, kelajak rejalariga to'g'ri kelmasa-chi?

Aslida, har bir talaba o'z qiziqishlari, imkoniyatlari, kelajakda qaysi kasbni egallashi va bu uchun kerakli fanlarni universitet ma'muriyatidan ko'ra yaxshiroq biladi. Talabani majburlab xonada olib o'tirish mumkin, lekin uning fikr va e'tiborini xonada ushlab o'tirib bo'lmaydi.

Qayd etilganidek, kredit-modul tizimiga o'tishning muhim jihatlaridan yana biri bu – **o'quv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishidir.**

Fanlarni tanlash amaliyoti nafaqat talabalar uchun o'zlari xohlagan yo'nalish bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga imkoniyat yaratadi, balki OTM o'quv dasturidagi fanlar tarkibi tabiiy ravishda saralanib borishiga ham xizmat qiladi. Chunki talabalar qiziqish va ehtiyojlariga javob bermaydigan fanlar dasturini tark etib borishadi, o'rganayotgan fanlari ro'yxatini davr talablari va qiziqishlariga moslashtirishadi.

Bunda o'qituvchi uning fani o'ziga yetarli miqdorda talabalarni jalb qila olishi uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, fanning talabalar uchun ahamiyatini saqlab qolish uchun darslar sifatini doimiy ravishda yaxshilab borishi zarur bo'ladi. Aks holda ushbu fan o'quv dasturidan chiqib ketishi va o'qituvchi o'z ishini yo'qotib qo'yishi mumkin bo'ladi. Bu jarayon darslar sifati yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

Fanlarni tanlash amaliyoti rivojlangan davlatlarda o'zining foydasini isbotlagan amaliyotdir. Ulardagi fan taraqqiyoti, rivojlangan iqtisodiyot, mutaxassislarning salohiyati xususan ta'limdagi aynan shu jihat bilan ham bog'liq.

Shunisi aniqki, kredit-modul tizimi tarixi, uning paydo bo'lishi fanlarni tanlash amaliyoti bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, kredit-modul tizimining yuzaga kelishiga tanlov fanlari amaliyoti sabab bo'lgan. Shunday ekan, agar OTM o'zida kredit-modul tizimini joriy etsa-yu, o'quv dasturlariga fanlarni tanlash imkoniyatini olib kirmasa, ushbu OTM tom ma'noda kredit-modul tizimida faoliyat yurityapti, deb bo'lmaydi.

Hozirda oliy ta'lim o'quv dasturlarida talabaning mutaxassisligiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan fanlar yetarlicha. Masalan, aksariyat universitetlarda 1-kursda, ayrim hollarda yuqori kurslarda ham jismoniy tarbiya, dinshunoslik, etika, estetika va shunga o'xshash boshqa fanlar o'tiladi. Bu fanlarni odatda talabalarning mutaxassisligiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi yo'q bo'lsada, OTM o'quv dasturlarida anchagina joy va vaqtni egallaydi. Qolaversa, talaba jismoniy tarbiya fanini OTMda faqat 1-semestr yoki bir yil o'rganishi – g'alati hol. Bir mutaxassis ta'kidlaganidek, «go'yoki jismoniy salomatlik va sport talabaga faqat bir semestr yoki bir yil kerak bo'ladi».

Nazarimizda, bu kabi fanlarning aksariyati maktabning yuqori sinf dasturlariga xos bo'lishi kerak. Agar talaba ushbu fanlar bo'yicha maktabda bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan bo'lsa, ularni universitet darajasida yana takrorlashga qanday ehtiyoj bor? Undan ko'ra, talaba shu vaqtni o'z sohasini chuqurroq o'rganishga sarf qilgani yaxshimasmi? To'g'ri, dinshunoslik, etika va estetika kabi umumiy fanlar yoshlarni shaxs sifatida shakllanishida katta rol o'ynashi mumkin, lekin hozirda maktab bitiruvchilarining bor yo'g'i 10-20 foizigina OTMga kirmoqda. Bu degani, agar bu fanlar maktab yuqori sinflarida o'rgatilmasa, maktab bitiruvchilarining aksariyati bunday bilimga ega bo'lmaydi. Bu kabi fanlar yoshlarni shaxs sifatida shakllanishi

uchun muhim deb hisoblansa, unda ular maktabning yuqori sinflarida o'rgatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

OTM o'qish dasturlarini umumiy, mutaxassislikka to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan, o'zini takrorlovchi fanlar bilan to'ldirilishi talaba universitetdagi qisqa va eng qimmatli vaqtdan samarali foydalana olmasligiga olib kelmoqda. Natijada bitiruvchilar orasida amaliyotga borgandan so'ng bizga bunday narsalarni universitetda o'rgatishmagan degan holatlar juda ko'p uchramoqda.

ECTS kredit-modul tizimida esa OTMlar o'zining har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturi maqsadlarini oldindan aniq belgilab olishi talab etiladi. Ya'ni, ular muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qish dasturini yaratishdan avval o'z oldilariga quyidagi savollarni qo'yishlari talab etiladi:

- Biz qanday mutaxassis tayyorlamoqchimiz?
- Bizning bitiruvchilar aynan qanday bilimga ega bo'lishi, nimalarni tushunishi va uni tamomlagandan so'ng nimalarni qila olishi kerak?

Har bir OTM bakalavriat va magistratura dasturi turlicha bo'lgani sababli, maqsadlari ham turlicha bo'lishi tabiiy.

Ya'ni, OTMlar o'zlarining har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturining maqsadlarini bitiruvchi dastur davomida qo'lga kiritishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va mahoratlar shaklida oldindan aniq belgilab olishlari zarur. Bu kredit-modul tizimi tili bilan «Program Learning Outcomes» deb ataladi. O'quv dasturi maqsadlari belgilab olingandan so'ng, endilikda dasturda faqat shu maqsadlarga xizmat qiluvchi fanlarga saqlab qolinadi yoki dasturga kiritiladi, qolgan fanlar esa dasturni tark etishi zarur.

Inchunun, OTMlar o'z o'quv dasturlarini iqtisodiyot, mehnat bozori va talabalar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda erkin shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun 2001 yil 16 avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga o'zgartirish kiritilishi va OTMlarga o'quv dasturlarini o'zlari erkin shakllantirishga imkoniyat berilishi kerak. 19 yil avval ishlab chiqarilgan standart bugungi zamon talablariga javob bermasligi ehtimoli yuqori. Zero, iqtisodiyot va mehnat bozori talablari o'zgargan sari OTMlar ham o'z o'quv dasturlarini muntazam ravishda baholab borishga, zarur bo'lsa o'zgartirishga imkoniyati bo'lishi kerak.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni qachon imzolandi?

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi



Farmonida 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning necha foizi kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tilgan?

3. Kredit-modul tizimining mohiyatini izohlang...
4. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari nilardan iborat?
5. Modul nima?
6. Kredit, bu ...

ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.

4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78.

5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.

6. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

8. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

9. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

10. O‘qituvchi faoliyatini loyihalash: //Uzluksiz ta’limda modulli texnologiya// Monografiya. M.Tojiev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish markazi. – T.: «TURON-IQBOL», 2017. – 256 b. 15.



IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI YO'NALISHIDAGI O'QITUVCHILARNING O'QUV-ME'YORIY HUJJATLARI. METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VA DIDAKTIK TA'MINOT

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Oliy ta'limni tashkil etish tartibi va mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari, o'quv-uslubiy majmua va o'quv adabiyotlari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishidagi o'qituvchilarning o'quv-me'yoriy hujjatlari.

Metodik ishlar, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida metodik ishlarni tashkil etishning o'ziga xususiyatlari.

Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalari. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minoti.

1-ilova

Munozara uchun savollar:

1. Didaktika, didaktik ta'minot tushunchalarining mohiyatini izohlang...
2. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning didaktik ta'minotini qanday izohlaysiz?
3. O'qituvchilarning darsga tayyorgarligi necha qismdan iborat?
4. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumidagi fanlar o'qituvchisi qanday o'quv me'yoriy hujjatlarga tayanib darsga tayyorgarlik ko'rishi kerak?
5. Fanning o'quv dasturi nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bir-biri bilan qanday farqlanadi?

3-ilova

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 3160 sonli qarori//Xalq so'zi, 2017 yil, 29 iyul.
2. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda.



3. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayèrlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.

4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.

5. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. “Ma'naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. –T.:TDPU,2013.

XORIJ MANBALARI:

1. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy –Schmidt Number: S-3277.On-line since: 24th January, 1995.

2. Michael Freeden.Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)

2-AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI YO'NALISHIDAGI FANLARNI O'QITISH SHAKLLARI, METOD VA VOSITALARI

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishning turli shakllari. Dars jarayonlarida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim modellaridan foydalanish.Interfaol ta'lim metodlari tushunchasi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitish jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlari tasnifi. Milliy g'oya va ma'naviyatga oid fanlarni o'qitishda test metodini qo'llash.

Ta'lim vositalari tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan vositalar tasnifi. O'quv adabiyotlari .

1-ilova

MUNOZARA UCHUN SAVOLLAR:

- 1.Test topshiriqlariga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
- 2.O'qitish vositalari deganda nimani tushunasiz?
3. O'quv adabiyotlari deganda qanday adabiyotlarni tushunasiz?
- 4.Qanday adabiyotlar an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari deb ataladi ?
- 5.Qanday adabiyotlar elektron o'quv adabiyotlar deb ataladi?
- 6.Darslik, o'quv qo'llanma elektron darslik, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami , ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, uslubiy ko'rsatma, uslubiy qo'llanma kabi o'quv adabiyotlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?



ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465 –son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – “Tarix, mustaqillik, milliy g'oya”. -T.: Akademiya, 2000.
9. Qoraboeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. – T.: Fan, 2006.
10. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.
11. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
12. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
13. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma'naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. – T.:TDPU, 2013.
14. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.
15. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
16. Larner I.Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. – Moskva, Pedagogika, 1981,s.35.

3-AMALIY MASHG'ULOT: MA'RUZA, SEMINAR VA AMALIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI. MASOFAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISH

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Oliy ta'lim tizimida o'qitish jarayonida ta'lim berishning turli shakl va usullaridan foydalanish. Ma'ruza va seminar, amaliy mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyasi.

Masofaviy ta'limning asosiy didaktik tushunchalari. Masofaviy o'qitishning maqsadi va mazmuni. Masofaviy o'qitishning umumiy va xususiy tamoyillari Masofaviy o'qitishning metodlari va usullari. Masofaviy o'qitishda foydalaniladigan vositalar. Masofaviy o'qitishni tashkil etish shakllari va ularning o'ziga xos xususiyatlar. Masofaviy o'qitish kurslarida nazorat ishlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari.

1-ilova

MAVZUGA OID YoRDAMChI MATERIALLAR:

Ma'ruza o'qitish jarayonining asosiy shaklidir. O'qitish jarayoni shakllari ichida ma'ruza eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruza o'qish yuqori malakali pedagoglarga topshiriladi, chunki ma'ruza kursini tayyorlash oliy maktab o'qituvchisidan katta mahoratni talab etadi. Har bir ma'ruza matnini tayyorlash esa, ilmiy ishni eslatadi.

Oliy yurtlarida o'qitiladigan ma'ruzalar, darslik, qo'llanmalar, internet ma'lumotlari va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha o'z shaxsiy ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Haqiqiy o'qituvchi ma'ruzaga vaqtinchalik topshiriq deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, ma'ruzani qayta ishlab, to'ldirib va mukammallashtirishi lozim. Bunda har bir o'qituvchining o'z amaliy qarashlari, materiallarga shaxsiy munosabati, ilmiy umumlashtirmalari bo'lishi shart. Buning uchun adabiyotlar tanlash, ulardan o'rinli foydalana bilish, matbuotda va internetda paydo bo'layotgan yangi adabiyotlarni yetarli hisobga olib borish talab etiladi. Binobarin, ma'ruzaga tayyorlanishda kitob, jurnal va boshqa materiallarni pala-partish o'qish, uning mavhum joylarini e'tiborsiz qoldirib, notanish so'zlar, noaniq atamalar va mavhum iboralarni aniqlamasdan tashlab ketish materiallarni o'zlashtirib olishga halaqit beradi va anglashilmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Ma'ruza talabalarni tarbiyalashning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Darsxonada o'qituvchi o'zining jonli nutqi va ko'rgazmali qurollari, zamonaviy

texnik vositalar bilan tinglovchilarga ilmiy tafakkur qilishning asl mohiyatini ochib beradi, talabalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularning ilm-fanga bo'lgan qiziqishini va o'quv madaniyatini oshiradi. Gap fandagi ilg'or tajribalar, so'nggi yangiliklarni tinglovchiga yetkaza oladigan, o'zining ilmiyligi va pishiqligi bilan o'zoq vaqtgacha esda saqlab qoladigan ma'ruzalar haqida borayapti. Ma'ruza o'qituvchilar bilan talabalarning aloqasini mustahkamlaydi. Bu jarayon seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida davom ettiriladi ishlab chiqarish amaliyotlari, kurs va BMI larini bajarishda yuqoridagi aloqalar yanada mustahkamlanadi va mustahkamlashib boradi. Talabalarga ma'ruza o'qish va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda oliy maktab hayotidagi tajriba ham nazariy, ham amaliy jihatdan umumlashtirib boriladi.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shakllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatiga ko'ra bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslarida talabalar ikki guruhga bo'linadilar har bir kichik guruhga alohida o'qituvchi rahbarlik qiladi. Amaliy mashg'ulotlar asosan ijtimoiy fanlar (tarix, til, adabiyot, huquq kabi), tajriba mashg'ulotlari esa tabiiy fanlar (ximiya, fizika, texnika kabi) uchun qo'llaniladi. Amaliy va tajriba darslarini nazariy kurs boshlanib, 8-10 soatlar o'tkaziladigan keyin boshlash maqsadga muvofiqdir. Amaliy darslarda talabalar o'zlashtirayotgan mavzu mazmuniga, bajariladigan vazifaning hajmiga qarab yakka holda yoki ikki-uch kishidan iborat gruppaga bo'lib ishlaydilar. Dars boshida o'qituvchi topshirig'iga ko'ra talabalar tajribaxonada bajariladigan ish mazmuniga qarab kerakli adabiyotlar, tajriba jihozlari, reaktivlar va turli asbob-uskunalar, bajariladigan tajriba ishining rejasi bilan tanishib, adabiyotlarda ko'rsatilgan qoidalarga amal qilgan holda mustaqil ishlay boshlaydilar. Agar ish jarayonida qiyinchiliklarga yoki tushunmovchiliklarga duch kelinsa, o'qituvchiga murojaat qilish lozim.

Hozirgi kunda an'anaviy ta'lim shakllari bilan birgalikda masofaviy ta'lim texnologiyalari jadallik bilan keng joriy etilmoqda. Bu hozirgi yoshlarning, ya'ni yangi avlodning ko'pchiligi shaxsiy kompyuterdan erkin foydalana olishi va hozirgi kunda har bir ta'lim muassasasi, har bir shaxs Internet tarmog'i va undagi ma'lumotlardan mohirlik bilan foydalanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Mazkur tajribalarda "masofaviy o'qitish" — inglizcha "distance learning" atamasidan "distance education" ya'ni "masofaviy ta'lim" atamasini kengroq tushuncha ekanligini ta'kidlashgan. Bu atamani kengroq tushuncha deb ifodalashning sababi inglizcha "learning" so'zi o'zining asosiy ma'nosida "o'rganish" yoki "o'rgatish" ma'nosini bildirib, ushbu ingliz mualliflari uchun "distance learning" ifodasi masofaviy o'qitishning mustaqil o'qishdan farq qiladigan faqat bir jihati

bo'lgan “learning”, ya'ni tyutor bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan o'qishni bildiradi. “distance education” — “Masofaviy ta'lim” atamasi esa, ta'lim jarayonining barcha jihatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bu tushunchalar, bir tomondan o'xshash bo'lib, ular bitta hodisa — axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy qilishni bildiradi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari — bu ta'lim oluvchi va pedagog xodimning to'liq yoki qisman masofadan o'zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab amalga oshiriladigan ta'lim texnologiyalari tushuniladi.

“Masofaviy o'qitish” atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo'g'ini bo'lib, Viskonsin shtati Universiteti tomonidan 1892 yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo'llanilgan. Masofaviy deb masofadan turib tashkil qilingan ta'lim tushunilgan. Unga “korrespondentlik o'qitish”, “uyda o'qish” va boshqalar sinonim hisoblangan.

Elektron o'qitish — ma'lumotlar bazasida mavjud bo'lgan va ta'lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot va unga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari, texnik vositalar hamda ko'rsatilgan axborotni aloqa liniyalari bo'yicha uzatishni, ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlarning o'zaro faoliyatini ta'minlaydigan axborot-telekommunikatsion tarmoqlarni qo'llab ta'lim faoliyatini tashkil qilishdan iborat.

O'qitish modeli — mashg'ulotlarda muayyan maqsadlar va ish sharoitlariga muvofiq ravishda tyutor tomonidan ta'lim metodining individual interpretatsiyasi hisoblanadi, ayrim adabiyotlarda o'qitish modeli atamasi, o'quv jarayonini sxematik ko'rinishda ifodalash ma'nosini anglatishi va u pedagog tomonidan tashkil qilinishi hamda amalga oshirilishi ta'kidlangan.

Masofaviy o'qitishning qulayliklari:

1. Moslashuvchanlik — o'quv jarayonini vaqtga, joyga va o'qish muddatiga muvofiq tanlash, amalga oshirish mumkinligi. Masofaviy o'qitish tizimida ta'lim oluvchilar asosan ma'ruza va seminar ko'rinishidagi uzluksiz mashg'ulotlarga qatnashmaydilar, balki o'zlariga qulay bo'lgan vaqtda, joyda va qulay tezlikda ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Modullilik — modullarda taqdim etilgan masofaviy o'qitishning mazmuni, ta'lim oluvchiga shaxsiy bilim olish ehtiyojiga mos ravishda individual ta'lim traektoriyasini yaratish imkonini beradi.

3. Qulaylik — ta'lim oluvchilarning yashash joyiga va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq emasligi;

4. Iqtisodiy samaradorlik — iqtisodiy samaradorlik, ta'lim muassasa harajatlari (kommunal xarajatlar, egallagan maydon to'lovi va hokazo) hamda ta'lim oluvchi



xarajatlari kabi (yo'l haqi, turar joy xarajatlari va hokazo) qisqaradi. Ta'lim xizmatlariga qilinadigan sarf xarajat an'anaviydagiga nisbatan taxminan 50-60 % ga qisqarishi mumkin.

5. Aloqaning tezkorligi — tyutor va ta'lim oluvchi orasidagi tezkor o'zaro qayta aloqaning mavjudligi.

6. Qamrovning kengligi — ya'ni masofaviy o'qish ma'lum sondagi ta'lim oluvchilarga mo'ljallanadigan auditoriya, xona talab qilmasligi sababli istalgan sondagi ta'lim oluvchilarni masofaviy o'qitish bilan qamrab olish imkoni mavjudligi.

7. Texnologiklik — o'qish jarayonida yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish.

8. Ijtimoiy tenglik — sog'ligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan qat'iy nazar, masofaviy shakl orqali o'qishda hamma uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatning bir xilligi.

9. Internatsionallik — ta'limiy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ta'lim xizmati bozoridagi jahon yutuqlarini eksport va import qilishda qulay va tezkor imkoniyatlar mavjudligi.

10. O'qituvchining yangicha roli — tyutor maxsus psixologik-pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatlarini tashkil etuvchi, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishlaridagi maslahatchi-ustoz ekanligi.

11. Ta'lim sifatining o'ziga xos nazorati — masofaviy o'qitishda nazorat shakli sifatida masofaviy imtihonlar, suhbatlar, amaliy, kurs va loyiha ishlari, eksternat, kompyuterli intellektual test o'tkazuvchi tizimlar qo'llaniladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, masofaviy o'qitish sifatining nazorati muammolar yechimi, ta'lim standartiga mosligi ta'limning barcha tizimi muvaffaqiyati uchun ahamiyatga ega.

2-ilova

MUNOZARA UChUN SAVOLLAR:

1. Bugungi kunda oliy yurtlarida o'qitiladigan ma'ruzalarga qanday talablar qo'yilmoqda?
2. Amaliy mashg'ulotlari ma'ruza mashg'ulotlaridan qanday farq qiladi?
3. "Masofaviy o'qitish" deganda nimani tushunasiz?
4. "Masofaviy o'qitish"ning o'ziga xosligi nimada?
5. Tyutor kim?
6. Masofaviy o'qitishning qulayliklarini qanday izohlaysiz?

4-ilova

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidgi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. T.11. – T.: O‘zbekiston, 2003.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
7. Mavlonova R., Turaeva O., Xoliqberdiev K., Pedagogika. T.: «O‘qituvchi» 2001. 514
8. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.
9. Litvinova S.G. Texnologiya «Perevernutoe obuchenie» v oblachno orientirovannoy uchebnoy srede kak komponent razvitiya mediaobrazovaniya v sredney shkole // Mediasfera i mediaobrazovanie. — 2015.
10. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
11. Ibraymov A.U. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. – T.: “Lesson press”, 2020.

4-AMALIY MASHG'ULOT: TA'LIM JARAYONINI

LOYIHALASHTIRISH VA UNI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Loyihaviy ta'limni rivojlanish tarixi. Loyihaviy ta'limning muhim belgilari. Loyihaviy ta'lim turlari. O'quv fanlariga bog'liqlikda ishlab chiqiladigan loyiha turlari.

Loyiha texnologiyasi. “Milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar va huquq ta'limi” yo'nalishida o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini loyihalashtirish.

“Milliy g'oya, milliy g'oya va ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlarva huquq ta'limi” yo'nalishida o'quv fanlarning mazmunini loyihalashtirish

1-ilova

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIG'I
(savolga mos javobni aniqlang)

t/r	Savollar	Javoblar
1	Mazkur loyihalar qoidaga muvofiq moddiy mahsulotlar, ba'zan tadbirlar ko'rinishida yoki yozma ko'rsatmalar, tavsiyalar shaklida tugallanadi, bu ...	Amaliy yo'naltirilgan loyihalar.
2	Mazkur loyihalar natijasida ilmiy maqolalar, risolalar, modellar yoki maketlar, o'quv filmlari, taqdimotlar yaratiladi, bu ...	Tadqiqotchilikka doir loyihalar
3	Mazkur loyihalar yakuniy natijasi talabalar qog'oz variantda yoki Internetda joylashtirishlari mumkin bo'lgan risola, jadvallar, chizmalar, grafiklar, diagrammalar tarzida shakllantiriladi, bu ...	Axboriy tavsifdagi o'quv loyihalari
4	Mazkur loyihalar deyarli hamma vaqt tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish ko'rinishida namoyon bo'ladi, bu ...	O'yinli va rolli loyihalar
5	Sub'ektning o'ziga, shaxsiy faoliyatiga va bilimiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular o'rtasidagi hamkorlik faoliyatiga oid munosabatlarni tavsiflaydi, bu...	Refleksivlik tamoyili
6	Pedagogik shart-sharoitlarning qulayligi, oz vaqt va kuch sarflash evaziga samarali natijalarga erishishni tavsiflaydi., bu...	Natijaviylik tamoyili

2-ilova

Nazorat savollari:

1. Ta'lim jarayonini loyihalashda qanday tamoyillar ustuvor sanaladi?
2. Tarbiya jarayonini loyihalash qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?
3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhiti deganda nimani tushunasiz?
4. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishda eng katta e'tibor nimaga qaratiladi?
5. O'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlarini tavsiflang...
6. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlarini o'qitishning innovatsion muhitini loyihalashtirishni o'z faningiz doirasida tushuntirib bering...



3-ilova

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
3. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
4. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
6. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

5-AMALIY MASHG'ULOT: MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMIGA KREDIT – MODUL TIZIMINI JORIY ETISH

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Ta'limning kredit-modul tizimi, mazmun va mohiyati. Kredit-modul tizimining mamlakatimiz oliy ta'lim tizimiga ta'limning amaldagidan ko'ra ancha mukammal o'lchov birligini olib kirishi.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari. O'qish yuklamasining muvozanatli taqsimoti. Fanlarni tanlash imkoniyati. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi.

1-ilova

Quyidagi tushunchalarni sharhlab bering:

1. Kredit- modul tizimi
2. Kredit texnologiyasi
3. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Tanlov fanlari
5. Sifat va samaradorlik

2-ilova**Munozara uchun savollar:**

1. Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qanday huquqni beradi?
2. ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori qanchani tashkil etadi?
3. 6 kredit necha soat o'qish yuklamasini tashkil etadi?
4. Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limiga kredit – modul tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
5. O'quv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishi talabalarga qanday imkoniyat yaratadi?
6. “Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” bakalavriat ta'lim yo'nalishi va “Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi(ma'naviyat asoslari)”da magistratura mutaxassisligi o'quv rejasining qaysi blokida ajratilgan soatlar kesimida talabalarga 2- yoki undan ortiq fanlarning ruyxati va ushbu fanlarning o'quv dasturlari taqdim etiladi?

3-ilova**ADABIYO TLAR**

1. “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. // Metodik qo'llanma. – T.: TDPU, 2014. 6,5 b.t.

9. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.

10. O'qituvchi faoliyatini loyihalash: //Uzluksiz ta'limda modulli texnologiya// Monografiya. M.Tojiev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi. – T.: «TURON-IQBOL», 2017. – 256 b. 15.

6-AMALIY MASHG'ULOT: MUSTAQIL TA'LIM VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan masalalar mazmuni: Mustaqil ta'lim tushunchasining mazmun va mohiyati. Mustaqil ta'lim - olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili. Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatining asosiy bosqichlari. Mustaqil ish turlari.

Talabalarning mustaqil ta'limini baholash mezonlari. Masofaviy ta'lim jaaryonida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish.

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari.

1-ilova

Mavzuga oid yordamchi materiallar:

Mustaqil ta'lim olish yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yakqol namayon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, yetuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga ahamiyat berishgan.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtda manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.

Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: «Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida,

o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir»

«Mustaqil ta'lim» tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta'lim turidir, deb ta'riflangan.

Ayni vaqtda «mustaqil ta'lim olish», «o'zini tarbiyalash», «mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanilmoqda.

Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berildi: mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Mustaqil ishlar didaktik maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo'ljallanganligiga qarab, birbiridan farq qiladi. Mustaqil ta'lim jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliliigi hamda o'quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog'liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek beriladigan mustaqil ishlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Uning nazariy, amaliy, ilmiy, metodik va pedagogik asoslari tahlil qilini, samarali shakllari, vositalari tanlansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda o'tiladigan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o'quv materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliliigi, topshiriq hamda vazifalarning ko'p qirraliligi, o'zaro bog'liqligi muhim o'rin tutadi. Ammo eng asosiysi, talabalarning mustaqil ravishda ta'lim olish faoliyatini tashkil etishda ularning intilish va qiziqishlariga e'tibor qaratish zarur. Talabalarning egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishini, ular ijtimoiy foydali, targ'ibot–tashviqot ishlarida ishtirok etishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Mustaqil ta'lim faoliyatining birinchi bosqichida fanlarga bo'lgan qiziqish asosiy manba bo'ladi. Biroq bu qiziqish yetarli darajada qat'iy va chuqur bo'lmaydi. Bunda ham maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, maxsus tashkiliy, mustaqil ta'lim faoliyati mavjud emas. Faqat kitoblar o'qish, maxsus ma'ruzalar tinglash, mustaqil tafakkur faoliyatiga intilish bo'ladi. Shaxsning mustaqil ta'lim olish faoliyatiga qiziqishlari ham mujassamlashmagan, u ham ko'plab qo'shimcha, keng miqyosli ishlarni amalga oshiradi, biroq bularni uzviy ravishda emas, balki ba'zan va chuqur bilimga ega bo'lmay amalga oshiradi.

Mustaqil ta'lim faoliyatining ikkinchi bosqichida talabalar mustaqil (albatta, nisbatan) o'z oldiga maqsad va vazifalar qo'yib, mustaqil faoliyat mazmunini anglab, tashkiliy ishlarni amalga oshirib boradilar. Bu davrda talabalar shaxsiy – hayotiy rejalar, g'oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida kasbiy vazifalarni hal etadilar. Ikkinchi bosqichda ularning mustaqil faoliyat qiziqishlari jiddiylashadi, fanning

alohida qismini o'rganish, bu orqali o'z hayotiy rejalarini tuzish, biror kasbni egallashga bo'lgan qat'iy istak asosiy o'rin tutadi. Ongli ravishda ko'shimcha faoliyat bilan shug'ullanadi, o'z g'oyalarini amalga oshirish vositasiga aylangan mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishga intilish paydo bo'ladi. Mustaqil ta'limni ongli ravishda tashkil etadi.

Mustaqil ta'lim faoliyatining uchinchi bosqichida talabalar mustaqil ta'lim bilan bir necha yil shug'ullanib, o'z kasbiy maqsadlari, faoliyati yo'nalishlarini vazifalarini aniq belgilash malakasiga ega bo'ladilar.

Mustaqil bilim olish darajasini baholash o'z-o'zini baholash va o'qituvchi tomonidan baholash asosida qiyoslanadi. Talabalarni mustaqil ishga tayyorlashda o'qituvchilarning roli ayniqsa katta bo'ladi. O'qituvchi mustaqil ish mavzusini talabaning imkoniyatiga, bilim darajasiga moslab, unda shu ishga nisbatan qiziqish uyg'otadigan va mustaqil fikr yuritishga majbur qiladigan qilib belgilashi lozim. Bu ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan barcha ma'lumotlarni metodik qo'llanmalarni berishi va ishni bajarish tartibi kerak bo'lganda savol – javoblar uyushtirishni, maslahatlar berish va shu mavzular bo'yicha ekskursiyalar tashkil qilish zarur.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi to'rtta turi qayd etib o'tiladi: namunalar bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar, rekonstruktiv-variativ, evristik (qisman ijodiy), ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar. Ammo ularda yuqorida qayd etilgan mustaqil ishlar natijasini tekshirib ko'rish, tahlil etish, sintez qilish, baholash, xulosa chiqarish haqida so'z yuritilmaydi.

Bizningcha, mustaqil ijodiy tadqiqot natijalarini tahlil etish va sintez qilish ham muhim pedagogik ahamiyatga ega. Uni mazmunan tarkib toptirish bilan birga talabalarning o'z ishlarini o'zlari tekshirishlari hamda nazorat qilishlari mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirishda yaxshi samara berishi aniqlandi. Ularning mohiyati quyidagicha tavsiflanadi:

- namunalar bo'yicha mustaqil ishlarda tipik vazifalar amalga oshiriladi, ya'ni turli mashqlar, amaliy ishlar namunalar asosida bajariladi. Namunalar bo'yicha bajariladigan mustaqil ishlar o'quv materiallarini o'zlashtirishga omil bo'ladi, lekin talabalar ijodiy faolligini rivojlantirmaydi;

- rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi;

- evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlarda ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan muammolar hal qilinadi;

- ijodiy tadqiqot ishlarida talaba masalani hal qilish yo'llarini mustaqil qidiradi va tadqiq etadi. Bunday ishlar qatoriga tajriba sinov ishlarini o'tkazish, jihozlar, modellar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi.

Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar talabalarda muammoni ko'ra bilish malakasini shakllantiradi va natijada ular muammoni mustaqil ifodalay oladi va uni hal etish rejasini ishlab chiqadi.

2-ilova

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIG'I
(savolga mos javobni aniqlang)

t/r	Savollar	Javoblar
1	Ma'ruza, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar, seminarlarda qo'yilgan muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan ...	Evristik (qisman ijodiy) mustaqil ishlar
2	Talaba masalani hal qilish yo'llarini mustaqil qidirishga va tadqiq etishga undaydi ...	Ijodiy tadqiqot xarakteridagi mustaqil ishlar
3	Bu bosqichda shaxsiy – hayotiy rejalar, g'oyalarni amalga oshirish vositasi sifatida kasbiy vazifalarni hal etiladi...	Mustaqil ta'lim faoliyatining ikkinchi bosqichi
4	Fanlarga bo'lgan qiziqish asosiy manba bo'ladi...	Mustaqil ta'lim faoliyatining birinchi bosqichi
5	O'z kasbiy maqsadlari, faoliyati yo'nalishlarini vazifalarini aniq belgilash malakasi hosil bo'ladi ...	Mustaqil ta'lim faoliyatining uchinchi bosqichi
6	Bilimlar mazmunini qayta ishlab chiqishni, masala yoki muammoni yechishda ulardan amaliy foydalanishni taqozo etadi ...	Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar

3-ilova

Munozara uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustaqil ta'limning mohiyatini izohlang...
2. Mustaqil ta'lim tushunchasiga qanday ta'riflar berilgan?
3. Mustaqil ta'lim faoliyati necha bosqichdan iborat?
4. Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida mustaqil ishlarning qanday o'rni bor?
5. Mustaqil ishlarning qanday turlari mavjud?..
6. "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishida o'qitiladigan fanlardan ko'proq qaysi turdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini tayyorlash maqsadga muvofiq?..



4-ilova

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so‘zi, 2020 yil 25 yanvar.
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so‘zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
5. Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 8 apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so‘zi, 2019 yil, 9 aprel.
6. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi” loyihasi
8. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
10. Abdullaeva Q.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2006.
11. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 .
12. Xalilov N. Mustaqil ta'lim shakllari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002.- № 5.- B. 88 – 89.
13. Husanboeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped.fan.dok. –Toshkent: O‘zPFITI, 2004.

7-AMALIY MASHG‘ULOT: MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYA T ASOSLARI VA HUQUQ TA’LIMI FANLARIDAN KURS ISHI (LOYIHASI), BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASHNING TASHKILIIY, ILMIY-METODIK TA’MINOTI VA ULARNING ONLAYN HIMOYALARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Amaliy mashg‘ulotda ko‘riladigan masalalar mazmuni: Milliy g‘oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi fanlaridan kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv

malakaviy ishlari mavzulari bankini shakllantirish. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlashga rahbarlik qilish.

Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari uchun adabiyotlar ro'yxatini shakllantirish. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlari uchun topshiriqlar tayyorlash.

Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarining bajarilishi. Kurs ishi (loyihasi), bitiruv malakaviy ishlarining an'anaviy va onlayn himoyalarni tashkil etish texnologiyasi.

1-ilova

Mavzuga oid yordamchi materiallar:

Kurs loyihasi yoki ishlari oliy o'quv yurtlarida talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish malakasini hosil qilishga, ma'lum ilmiy xarakterga ega bo'lgan qisqacha ma'ruza yozishga o'rganishga chorlaydi. Odatda, kurs ishlari yoki loyihasi yozishda o'qituvchi rahbarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib, taqriz qilinadi va o'qituvchiga topshiriladi. Kurs ishini bajarish jarayonida talaba o'qituvchi rahbaridan muntazam ravishda maslahatlar olib turadi. Ularning hajmi fanlarning xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Kurs ishlarining nazorat ishlaridan farqi shundaki, kurs ishlarida talabalar aniq mavzu bo'yicha mustaqil fikr yuritadi va kichik muammolarni yechib berishga o'zining hissasini qo'shadi. Nazorat ishlarda esa oldin tayyorlab qo'yilgan savollarga javob qaytariladi. Ularning hajmi kurs ishlarining hajmiga nisbatan kichik bo'lib, o'zaro bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Kurs loyihasi yoki ishlari talabalarning o'quv-tadqiqot ishlarining asosiy shakllaridan birini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishlari talabalar oliy o'quv yurtini tamomlayotganlarida tanlagan maxsus kurslari yuzasidan ilmiytadqiqot olib boradilar. Ular shu soha bilan bevosita bog'liq bo'lgan adabiyotlarni ishlab chiqib, o'z ishlarning boshqa ishlardan farqini, uning ishlab chiqarishga keltiradigan foydasini ko'rsata bilishlari kerak. BMI o'qituvchi rahbarligida yoziladi. BMIning hajmi 12- 15 ming so'z atrofida belgilanadi. Ish tamom bo'lgach, BMIga mutaxassis tomonidan taqriz yoziladi va muhokamaga qo'yiladi. Muhokamada mutaxassislar ishtirokida bitiruvchi qilgan tadqiqoti haqida axborot beradi. So'ngra muhokama hamda munozara qilinadi va ish baholanadi. Talabalar tomonidan bajarilgan BMilar haqiqiy ilmiy ishlarining boshlanishidir. Bu munozarani talab etmaydi. BMI talabaga ilmiy izlanish, muammolarni o'rganish va uning mohiyatini tahlil qilishda yordam beradi. Zotan, talabalar o'qish jarayonida ma'lum doirada ilmiy-tekshirish ishlari olib borgan bo'ladilar. Talabalarning ilmiy ishlari talabalar ilmiy jamiyatlari anjumanida tinglanadi, muhokama qilinadi, baholanadi bu jarayon talabaning ilmiy qobiliyatini charxlab boradi.



2-ilova

Quyidagi tushunchalarni tahlil qiling:

1. Kurs ishi
2. Bitiruv malakaviy ishi
3. Kurs ishi yoki bitiruv malaka ishining kirish qismi
4. Kurs ishi yoki bitiruv malaka ishining asosiy qismi
5. Kurs ishi yoki bitiruv malaka ishining xulosa qismi

3-ilova

ADABIYOTLAR

1. M.G.Golchenko.Vvedenie v spetsialnost, Minsk, 1986, 160 s.
2. T.Sh.Shirinkulov i dr. Vvedenie v spetsialnost, Tashkent,Ukituvchi, 1987, 184 s.
3. V.F.Maksimov, G.V.Stadniskiy.Vvedenie v spetsialnost, Leningrad,1988, 1680 s.
4. A.Radjabov, A.D.Raxmatov, A.X.Vohidov. Mutaxassislikka kirish, toshkent, 2008, 82 b.
5. A.T.Turabaev, M.X.Axmedova. "Mutaxassislikka kirish" fanidan ma'ruzalar to'plamiyu,2003 y.



V. KEYSLAR BANKI

Modul bo'yicha keyslar

1-keys bayoni

1989 yil 25 iyun kuni Islom Karimov janjal-to'polonlar alangasi ichida qolib ketgan Farg'onaga yo'l oladi. Lovillab yonayotgan uylar, tahlika va sarosimaga tushgan shahar va qishloqlar, qahr-g'azabga to'lgan odamlarning ichiga dadil kirib boradi. Ular bilan chin dildan, hech narsani yashirmasdan ochiq gaplashadi. Bu insonlarning shu vaqtga qadar hech kim eshitmagan ohu nolalarini tinglab, o'zining yurakdan chiqqan samimiy va haqqoniy so'zlari bilan bamisoli ularning qalbidagi jarohatlarga malham qo'ygandek bo'ladi, ko'ngillarda so'ngan umid uchqunlarini uyg'otadi. Tartib-intizomni tiklash, qon to'kilishining oldini olish bo'yicha butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, aniq chora-tadbirlar ko'radi. Voqea sabablarini qidirdi.

Keys savoli

Islom Karimov nima uchun shaxsan o'zi Farg'onaga yo'l oldi?

O'qituvchining yechimi

“O'zbek xalqining vijdoni pok. Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix, albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalminalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb saxovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan” . Shu bois Islom Karimov o'zi Farg'onaga shaxsan tashrif buyurib masalaning asl mohiyatini anglab yetishni, o'zbek xalqining sha'ni, qadr qimmatini va g'ururini oyoq osti qilinishiga yo'l qo'ymaslikni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

2-keys bayoni.

“Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyo-dagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'isundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalam-bor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boy-ligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Buning tasdig'ini uzoq va yaqin tarixdagi ko'p-ko'p misol-larda yaqqol ko'rish mumkin. Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”.



Keys savoli

Nima uchun Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarining muqaddimasidayoq ma'naviy tahdidlarga e'tibor qaratdi?

O'qituvchining yechimi

Chunki ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

3-keys bayoni.

Jamiyatda ma'naviyatga tahdidlar soladigan illatlar talaygina, ana shunlan illatlar qatorida bugungi kunda vijdotsizlik holatlari ham ko'zga tashlanib turibdi. O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida vijdon pokligi va bedorligi tushunchasining mazmun mohiyatiga alohida to'xtalib o'tadi.

Keys savoli

Nima Islom Karimov o'zining “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida vijdon pokligi va bedorligi tushunchasining mazmun mohiyatiga alohida to'xtalib o'tdi?

O'qituvchining yechimi

Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir.

Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi.

4-keys bayoni.

Islom Karimov beparvo odamni “dushmandan ham xavfliroq” deb tushunadi va bu bilan beparvolik oqi batida kirib kelishi mumkin bo'lgan vojealar haqidagi farazni olga suradi.

Keys savoli

Bu qanchalik to'g'ri? Beparvo odamni “dushmandan ham xavfliroq” deb bilan atash mumkinmi? Fikrlarinigizni asoslang va izohlang.

O'qituvchining yechimi

Beparvo odamlardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi. Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan ham xavfliroqsir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum



bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi.

Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: "Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi".

VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Kasbiy-ijodiy imkoniyat Professional and creative ability	1) kasbiy kompetensiya, malakaga egalik; 2) kasbiy ijod metodologiyasi asoslarini o'zlashtirganlik; 3) ijodiy tafakkurning shakllanganlik darajasi; 4) kasbiy-ijodiy layoqat va shaxsiy sifatlarning rivojlanganligi.	1) possessing professional competence and skills; 2) mastering basics of professional creativity methodology; 3) level of development of creative thinking; 4) development of professional and creative tendency and personal qualities.
Kasbiy-ijodiy faoliyat Professional and creative activity	mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.	an innovative behavior or an activity of a specialist characterizing his success in solving professional issues in a creative way.
Kasbiy ijodkorlik metodologiyasi Methodology of professional creativity	ijodkorlikning jarayon va natija sifatida ob'ektlar hamda muayyan kasbiy faoliyat turlariga munosabat ko'rinishidagi tuzilishi, mantiqiy tashkil etilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot.	a doctrine about logical organization and composition of a creativity as an object of a process and result in the form of attitude toward the distinct types of professional activity, methods and means.
“Keys-stadi” texnologiyasi Case study technique	(ingl. “case” – chemodan, metod, “study” – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) – talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	a technique that allows students to develop skills of identifying the best solution to the context by analyzing certain, real or non-authentic problem-based situations.
Kreativlik Creativity	(lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni	an ability of an individual characterizing readiness for producing new ideas and an

	ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.	independent factor comprising creative skills
Pedagogika pedagogy	1) pedagogda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, kreativ yondashish, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan qobiliyat va malakalarini rivojlantirish; 2) talabalarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga ijobiy, mustaqil yondashish, o'quv topshiriqlarini bajarishda yangi, ijodiy va kreativ g'oyalarni ilgari surish qobiliyati ko'nikmalarini shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish asosida kasbiy tayyorlash asoslarini yoritadigan, shaxs kreativligining turli yosh bosqichlari xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi fan	1) developing teacher's creative approach toward organizing educational process and skills of positive solving of existing pedagogical problems; 2) a science about developing students' positive and independent attitude toward mastering the learning materials, promotion of new ideas when fulfilling assignments; covering professional training basics based on the step by step development, studying issues of development individual's creativity in accordance with peculiarities of different age stages.
Kreativ qobiliyat Creative ability	shaxsning ijodiy faoliyatni tashkil etish va uning natijalanganligiga erishishni ta'minlash imkoniyatini belgilovchi individual xususiyati	an individual peculiarity of a person that identifies a possibility of organizing creative activity and providing its effectiveness.
Ijod Creative work	ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.	a results of a work acknowledged by a society or a certain group of people on subject's novelty, significance and usefulness.
Ijodiy tafakkur Creative thinking	tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni	a type of thinking that expresses the organization of creative work and predicts its



	ifodalovchi turi.	results.
Ijodiy topshiriqlar Creative assignments	muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.	a system of issues intended to solve based on the systematic analysis of problem-based cases.
Ijodkorlik Creativeness	muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.	an individual's activity and its result that identify significance and usefulness of novelties.
Ijodkor shaxsni shakllantirish Training a creative personality	kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish hamda rivojlantirish	formation and development of an individual's skills on producing creative ideas based on the experience of professional and creative activity.
Ijodiy qobiliyat Creative ability	ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo'ladigan individual xususiyati	an individual peculiarity demonstrated in assessing creative activity and its effectiveness.
O'zini o'zi ijodiy faollashtirish Creative self-activation	shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishi	development and absolute demonstration of abilities in individual's creative activity

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 3160 sonli qarori//Xalq so'zi, 2017 yil, 29 iyul.
2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.// Toshkent, Xalq so'zi. 2019 yil. 4 may. № 78.
3. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019 yil 8 oktyabr// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi. 2020 yil, 23 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar.
6. Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 8 apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi №5465–son Farmoyishi//Xalq so'zi, 2019 yil, 9 aprel.
7. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasi
8. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori.//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
8. Otamurodov S. Milliy g'oya - milliy tiklanish manbai. – "Tarix, mustaqillik, milliy g'oya". -T.: Akademiya, 2000.
9. Mavlonova R., Turaeva O., Xoliqberdiyev K., Pedagogika. T.: «O'qituvchi» 2001. 514.
10. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Zebuniso-Konigil / 4-tom. Bosh tahrir hay'ati a'zolari: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
11. Xalilov N. Mustaqil ta'lim shakllari // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002.- № 5.- B. 88 – 89.



12. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2003 .
13. A.T.Turabaev, M.X.Axmedova. “Mutaxassislikka kirish” fanidan ma'ruzalar to'plamiyu,2003 y.
14. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped.fan.dok. –Toshkent: O'zPFITI, 2004.
15. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.
16. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.
17. Qoraboyeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni. – T.: Fan, 2006.
18. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. nom.- Toshkent: 2006.
19. Zamonaviy dars. / Mas'ul muharrir Sh. Shomansurov – T.: A. Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007.
20. A.Radjabov, A.D.Raxmatov, A.X.Vohidov. Mutaxassislikka kirish, Toshkent, 2008, 82 b.
21. T.U.Usmonov, B.S.Mirzayev, I.S.Hasanov. Mutaxassislikka kirish. Toshkent,Voris-nashriyot, 2013, 336 b
22. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. Q. Nazarov tahriri ostida. -T.: Ma'naviyat, 2009.
23. To'xliiev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekistan Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
24. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova.Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
25. Xoliqov I., Sobirova M ., Masharipova G. “Ma'naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish. – T.:TDPU,2013.
26. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015.
27. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. – T.: RTM, 2017.
28. O'qituvchi faoliyatini loyihalash: //Uzluksiz ta'limda modulli texnologiya// Monografiya. M.Tojiyev, B.Ziyomuxamedov, B.Sh.Usmonov, A.J.Xurramov;



O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish markazi. – T.: «TURON- IQBOL», 2017. – 256 b. 15.

XORIJ MANBALARI:

1. Human Life in the Light of Spiritual Science. - Anthroposophy –Schmidt Number: S-3277.On-line since: 24th January, 1995.
2. Michael Freeden.Ideology: A Very Short Introduction (Oxford, 2003)
3. Larner I.Ya. Didakticheskie osnovy metodov obucheniya. – Moskva, Pedagogika, 1981,s.35
4. M.G.Golchenko.Vvedenie v spetsialnost, Minsk, 1986, 160 s.
5. V.F.Maksimov, G.V.Stadniskiy.Vvedenie v spetsialnost, Leningrad, 1988, 1680 s.
- 6.Litvinova S.G. Texnologiya «Perevernutoe obuchenie» v oblachno orientirovannoy uchebnoy srede kak komponent razvitiya mediaobrazovaniya v sredney shkole // Mediasfera i Mediaobrazovanie,2015.

V. Internet saytlar

1. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet
5. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.